

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 20-avgust chorshanba №33(9566)

Xalq ziyolilari gazetasi

Usmon JO'RAYEV:

O'QITUVCHI NEGA HAMON OBRO'LI SHAXSGA AYLANA OLMADI?

2-3-betlar

Hilola MAMAJONOVA:

USTAMA NIMA BO'LDI?

7-bet

Rahbaroy MELIBOYEVA:

OMMALASHTIRISH NIMA UCHUN KERAK?

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Stavka kamaytirilsa ko'pgina "jang"larning oldi olinib, eng birinchi navbatda o'qituvchining ulug'lik maqomi qaytgan bo'lardi. Bitta tom ostida necha yillar birga ishlab bir-birining ko'ziga qarolmasliklarning oldi olinardi, eshiklar qattiq yopilmagan, hech kim quyushqondan chiqmagan, yil boshi tilimizda ham, dilimizda ham chinakam bayram bilan boshlangan, qaroko'zlar esa ustozlarining bexavotir, betashvish holda darsga kirishlarigagina guvoh bo'lardi...

Nargiza BEKNAZAROVA

Ishga yangi kirgan paytimizda(30 yillar avval) o'qituvchilarning dars talashganini hech ko'rmasdik. Oxirgi yillar dars taqsimotidagi tortishuvlar odatga aylanib qolyapti. Hamma ko'proq dars soati olishga intiladi, kurashadi. Lekin o'qituvchining sog'ligi, darsning sifati hech kimni tashvishga solmayapti. Axir me'yordan ortiq ish soati o'qituvchini charchatadi, dars sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Murodjon UMAROV





O'qituvchi minbari

TURTKI

yoxud milliy sertifikat olish muammo emas!



Endi yoshim o'tdi, xotira sustlashdi, vaqtim yo'q, ishim ko'p, qolaversa bu testlar qiyin, biz o'rgangan testlardek emas, juda murakkab, chalkash, bari bir-biriga o'xshash. 40 asar o'qish osonmi, g'azal tahlili dahshat, ilmiy matn rasvo, mantiq faniga balo bormi... ala-bala-vala...deyapsizmi? To'xtang!

Shoshmang! Hech qachon hech qachon demang! Agar qattiq xohlasangiz uddalab bo'lmas ish, erishib bo'lmas cho'qqi yo'q! Niyatni butun qiling va o'z ustingizda ishlang!

Yuqoridagi qo'rquv, xavotir, norozilik, kibr menda yo'qmidi deysiz? Men bu sertifikatni qanday qo'lga kiritdim?

Oллоhga shukur, toifam oliy. Ish stajim 26 yil. Shuncha yil mobaynida nimaiki imtihon, nimaiki test bo'lsa, barini yengil va oson topshirganman. Hech qachon mag'lubiyat mayini totmaganman. Ijod qilib turaman. Ommaviy axborot vositalarida hikoya va maqolalarim muntazam bosilib turadi. Shogirdlarim olimpiadalar-da muvaffaqiyatli qatnashadi, oliy o'quv yurtlariga kirishadi. Obro'yim ham, ilimim ham, ishim ham joyida. Lekin shu milliy sertifikat(MS) chiqdi-yu, oromim yo'qoldi. Tabiatan konservativ odammanmi, bu xildagi testlarga moslashishim qiyin kechdi. Boshini boshlayman, tashlab qo'yaman. Ilmiy matn shu darajada asabiylashtiradiki, iloji bo'lsa o'qigim kelmaydi. G'azal... O! G'azallarni azaldan sevaman, shiddat bilan rasmlar chizib, go'zal tashbehlari, she'riy san'atlarini shunday to'liqlanib tushuntiramanki, o'quvchilarim ham, o'zim ham mazza qilaman. Lekin MSning g'azal testlariga sunnikaverib(turtnaverib) jig'ibiyronim chiqadi. E, o'rgildim-a! Shunaqayam malamijir, chalkash-chulkash testlar bo'ladimi-ya?

“Esse yozish sizga ish emas! Rosa qoyillatasiz”, deb havas qilishardi. Ha, “qoyillatardim!”. Hammada so'z topish 200–250 so'zga yetkazish muammo bo'lsa, menda 650–700 so'z bo'lib ketadi. Esselarim publitistik emas, badiiy uslubga tortib ketaverardi. Tabiiyki, bu nizomga ko'ra past baholanishi kerak.

Hafsalam pir bo'ldi oxiri. Qo'lni yuvib qo'ltiqqa urdim.

“Bu testlar men uchun emas ekan”, degan qarorga kelib, 2-3 yilni ham o'tkazib yubordim. Bir kuni qarasam mendan hijjalab grammatikani o'rgangan, oddiy testlarni yecha olmay yordam so'raydigan ustozlar MS olyapti!

“Unda men ham olishim aniq”, dedim-u tayyorlanmasdim shartta MSga topshirdim-keldim. “Savollar-ning bariga tishim o'tyapti, o'zimcha “gulini” chiqarib ishladim. Esseni ham go'zal yozdim. Endi, albatta, o'taman. Axir falonchi va pistonchilardan kam joyim yo'q-ku”, deb natijani kuta boshladim.

Kibr qursin. Kibr insonni g'aflatda qoldiradi. Biron marta “shoxi sinnmagan”, doim yuqori natijalarni qo'lga kiritgan, chuqur hurmatga, doimiy maqto'v va e'zozlarga o'rganib qolgan menday inson umrimda birinchi marta “yiqildim!”.

Yiqilish?! Aslida buni “yiqilish” deb ham bo'lmasdi. Balim yaxshigina – B daraja olibman. B+ ga 2,7 ball (Bu darajaga havasmandlar ham talaygina-ku, deb o'ylamabman o'shanda).

“E, kerakmas!” deb o'zimcha arazlagan bo'ldim(Kimga foyda, kimga ziyon?!).

Qayta topshirmay, tayyorlanmay, dunyodan xafa bo'lib yuraverdim-u... ichimda nimadir g'imirlayverardi. Nimaga? Nimaga endi men ola olmadim? Ilmim kammi? Irodam sustmi? 25 soat dars, uy ishlari, mol-hol, bola-chaqa, to'y-tomoshadan ortib vaqt topa

olmayapmanmi? E, yo'q! Shunchaki men aniq maqsad qo'ymadim va maqsadim yo'lida qattiq mehnat qilmayapman xolos. Ilmim poydevori mustahkam, shunchaki bu testlarga moslashishim va o'z ustimda qattiq ishlashim kerak! Shu qarorga kelgan paytim hayotimdagi sinovli davrni boshdan kechirayotgan edim. Mashina urib yuborib yotib qolgan paytim edi. O'ng qo'lim gipsda, o'ng oyog'im ezilgan. Qattiq og'riq va uzluksiz davolanish. Kunda-kunora mehmon-izlom. Har narsada bir xayr bor ekanki, o'sha og'ir ikki oy davomida men izlagan, istagan “turtki” – avvaldan kuzatib kelayotgan, munosib ko'rib, hammaga tavsiya qiladigan Haydarovlar kursiga yozilib qoldim. Umrin davomida pul to'lab ilm olmaganman. Uncha-muncha ustozlardan ko'nglim to'lmagan. Bular bilgan narsani men ham a'lo darajada bilaman deb hisoblardim. Lekin ich-ichimdan adashganimni his qilardim. Chunki har kuni o'z ustingda ishlashga majbur qiladigan, tinmay topshiriq beradigan, nazorat qiladigan, kerak bo'lsa tanbeh, kerak bo'lsa motivatsiya beradigan bir ustozga yoki tizimga ehtiyojim bor ekanligi yaqqol ayon bo'lgan edi. Xullas, tavakkaliga bu kursga yozildim-u, “bekor qildimov”, deb o'yladim. Pulimga ichim achidimi, mehnat qilgim kelmayotganmide, “nima zaril edi-ya?!” derdim o'zimga-o'zim. Nachora? Boshlab qo'ydim. Davom ettirishim kerak.

...Bu jamoa shunday shiddat bilan ishlashar, tinmay topshiriq berishardiki, ba'zan jahlim chiqardi. Nima, biz avtomatizmizmi? O'ylanib topshiriq bermaydimi odam degan? Shuncha asar, shuncha test! Qaysi biriga ulguramiz? Vaqt masalasini hisobga olishadimi, yo'qmi?

“Bu asarni o'qiganman!” deyman qaysarlik bilan. “Qayta o'qing!” deyishadi. Qayta o'qiyman. “Tahlil tinglang!”, tahlillardan gohi ko'nglim to'lsa, gohi to'lmaydi. Chunki fikr odamiman. O'zimcha tushunib, o'zimcha xulosa chiqarib o'rganganman.

“Test yeching!”, testlarim birda baland, birda pastroq chiqadi. Topshiriqlarning biriga ulgursam, boshqasiga ulgurmayman. Ora-orada tanqidiy fikrlar bildirib qolaman, testlarni tahlil qilib kimlar bilandir tortishib qolaman.

“To'xta! – dedim shunda o'zimga-o'zim. Maqsadning MS olishmi, maqsaddan og'ishma! Imkon qadar o'qi va harakat qil, mehnat qil, natijasini Ollohgga havola qil. Boshqasi bekor”.

100 % vazifalarni bajardim deya olmayman, namunali o'quvchi ham bo'la olganim yo'q, lekin azizlar, mana ko'rib turibsiz ko'zlagan natijaga erishdim. Uddaladim! B+ga 50 % ustama to'lashadi. Men esa undan ham o'tib A daraja oldim!

A+ ga salginagina(0,1 balmi?) yetmay qolibman-a? Bu esa quntim kamligi, dangasalik qilganimdan, albat-ta.

Haydarovlar jamoasi o'sha men kutgan sehrli “turtki” vazifasini o'tay oldi. Tizimlashgan dasturi bilan meni o'z ustimda ishlashga majbur qildi. O'sha men “rasvo” hisoblagan ilmiy matnning testlarini oddiy va oson yechish yo'llarini, chalkash tuyilgan g'azal testlarining nozik nuqtalarini, yoqimsiz ko'ringan mantiqiy testlarning mohiyatini anglata oldi.

Buning uchun jamoadagi barcha ustozlardan minnatdorman! Rahmat, rahmat, rahmat!

Ilmingiz ziyoda bo'lsin! Men kabi MSning ichiga kirmay, eshigidan mo'ralab “qiyin” ekan deb cho'chib yurganlarga tavsiyam: belni mahkam bog'lang va o'quv kurslariga yoziling!

To'g'ri tanlov, iroda va mehnat sizni yuksaltiradi. Intilganga tole yor! Shu yergacha erinmay o'qiganlarga tashakkur. Yorug' yuz bilan nurli manzillarda ko'rishguncha omon bo'ling.

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi
47-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Kun mavzusi



Joriy yilning 15-may kuni Prezident Sh.Mirziyoyev maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishning ustuvor vazifalari mavzusida videoselekr yig'ilishi o'tkazdi. Prezidentning nutqi maktab ta'limining hech bir xodimini befarq qoldirmadi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Respublikamizda bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish masalasi yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li ekanligi tan olindi.

Najot ta'limda. Ulug' jadid bobolarimiz aytgan bu hikmat hamon ahamiyatini yo'qotgani yo'q va yo'qotmaydi ham. Jadid bobolarimiz eskirgan o'rta asr ta'lim tizimi o'rnga ilg'or Yevropa andazasi asosida yangi usul maktablari faoliyatini yo'lga qo'yish orqali yurtimizni savodxon o'lkaga aylantirish, yuqori malakali zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash va ularning sa'y-harakati bilan Turkistonni dunyoning ilg'or davlatlari qatoriga ko'tarishni maqsad qilishgan edi.

Afsuski, ularning maqsadi ro'yobga chiqmadi. Sovet hokimiyati ularni qatag'on qildi.

Bugungi avlod Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida jadid bobolarimizning orzularini, maqsadlarini ro'yobga chiqarish va shu orqali O'zbekistonni taraqqiy etgan davlatga, aholisi esa boshqalardan kam bo'lmagan darajada munosib turmush kechirishi uchun barcha shart-sharoitni yaratishga harakat qilmoqda. Maqsadning ro'yobga chiqishi kaliti esa zamonaviy ta'limdir.

Zamonaviy ta'limning **bosh harakatlantiruvchi kuchi esa ilg'or, zamon bilan tengma-teng qadam tashlashi lozim bo'lgan muallimdir**. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 20-aprelda “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” qaror qabul qildi. Qaror bilan O'zbekistonda “Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi” tashkil etildi.

Uning asosiy vazifasi – ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimini joriy qilish; ta'lim tashkilotlarida o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr qilish ekanligi belgilab qo'yildi. Binobarin, ko'zlangan maqsadning markazida o'qitishning ilg'or metodlari bilan qurollantirilgan o'qituvchi shaxsi yotibdi. Bunday o'qituvchilarsiz ta'limda islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda muallimning mavqeini ko'tarish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa-da, u jamiyatda obro'li kishiga aylanganicha yo'q. Nega?

Birinchidan, davlat o'qituvchi obro'si va maqomini ko'tarish haqida hujjatlar qabul qildi, biroq ular hozircha hujjatligicha, muallimlar va maktab rahbarlari esa bezori o'quvchilarning chalasavod o'ta-onalari oldida “qo'l-oyog'i bog'langanicha” qolmoqda.

Ikkinchidan, 30 yil davomida ta'limda o'z yo'limizni topa olmaganimizda, hali u davlatning, hali bu davlatning tajribasiga mahliyo bo'ldig-u, ularni qo'llashga kelganida izchillik yetishmadi. Nihoyat, Finlandiya, Singapur, XXR (Shanxay), Kanada, Estoniya kabi ta'lim sohasida ilg'or davlatlarning tajribasini o'rgana boshladik. Bu bejiz emas. Chunki bu davlatlarning yuksak taraqqiyotini ta'minlagan asosiy omil ta'lim bo'lganligiga ishonch hosil qildik.

Bu davlatlar o'quvchilarining xalqaro PISA va boshqa sinovlarda egallagan o'rinlari doimo yuqori. Xususan, Singapur maktablari o'quvchilari xalqaro PISA sinovlarida 2022-yilda dunyoda 1-o'rinni (81 davlat orasida) egal-ladi.

Bu yutuqlar asosida mazkur davlatlar hukumatlarining o'qituvchi mehnatiga munosabati yotibdi. Chunonchi, Finlandiyada maktab o'qituvchisining ish haqi miqdori mamlakatda 5-o'rinda turadi va u o'qituvchini kun bo'yi maktabda ishlashga rag'batlantiradi. Singapurda esa undan ham yuqori. Bizda-chi?.. Modomiki, biz ilg'or davlatlar ta'lim tizimini andoza qilib olar ekanmiz, o'qituvchi ish haqi arziyas foizlarga oshirilganligi bilan maqtanishni to'xtatib, o'qituvchining hozirgi maoshi miqdorini yangi o'quv yilidan 50 foizga oshirish lozim.

O'qituvchi nega hamon obro'li shaxsga aylana olmadi?

O'qituvchi o'z kasbi orqali o'rta tabaqaga aylanmas ekan, jamiyatning orzu-umidlari amalga oshishi juda qiyin kechadi.

Uchinchidan, jamiyat a'zolarining aksariyati savodsiz. Jamiyat a'zolarining savodsizligi deyilganda, o'qish va yozishni, 4 amalni bilmaslik darajasidagi savodsizlikni emas, umumiy dunyoqarash, bugungi davlat siyosatining mazmun-mohiyatini tushunish, pedagogik va psixologik bilimlardan xabardorlik darajasidagi savodsizlikni tushunmoq zarur. Savodsiz jamiyat hech qachon o'qituvchi mehnati qadriga yetmaydi.

To'rtinchidan, o'qituvchi jamiyatda eng savodli qatlamga aylanmagan. Sababi, ijroiya hokimiyatining aybi bilan o'qituvchida eng savodli shaxs bo'lish uchun intilish rag'batlari so'ndirildi. Bir vaqtlar o'qituvchi mahallada eng savodli shaxs bo'lgan. Bugun o'qituvchi mahallada savodxonlik jihatidan boshqa ulardan bir pog'ona ustun bo'lmas ekan, uning obro'si pastligicha qolaveradi. Hukumat siyosatidagi kemtiklik o'qituvchi mehnatining rag'batlantirilmaganida o'z ifodasini topdi.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kun Yu Singapurning Osiyo yo'lbarsiga aylanishida o'qituvchining hissasi haqida bunday degan edi: **"Mamlakatni rivojlantirish uchun men hech qanday mo'jiza yaratmadim. Men o'qituvchining obro'si va mavqeyini yuqori darajaga ko'tardim. Uning oylik maoshini mamlakatda eng yuqori maosh darajasiga olib chiqdim, xolos."**

Natijada o'qituvchilar mamlakatni rivojlantirdilar. Buning uchun ulardan minnatdorman".

Beshinchidan, bizda o'qituvchining oylik ish haqi hamon ko'chada pista, tamaki, xonim sotuvchisining daromadidan ham kamligicha qolmoqda. Bu esa o'qituvchini qo'shimcha daromad topish bilan shug'ullanishga majbur etmoqda.

O'qituvchiga uzoq yillar davomida tekin ishchi kuchi deb qarab kelindi. O'qituvchi ijroiya hokimiyatning o'zboshimchaligi tufayli majburiy mehnatga tortilib kelindi (pilla boqish, paxta chopish, chekanka qilish, ko'cha tozalash, erkak o'qituvchilar esa bug'doy doni ortilgan tirkamalarni g'alla qabul qilish maskaniga kuzatib borish va h.k.). Maktablar 15–20-sentabrdan boshlab paxta terimi munosabati bilan yopildi. Maktab binolariga hasharchilar joylashtirildi. Hasharchilar o'qituvchilarning butun avgust oyida maktab xonalarini ta'mirlash uchun sarflangan mehnati va mablag'ini oyoqosti qilishdi. Yopilmagan quyi sinflar bolalari va ularning o'qituvchilari ertalab maktabga kelganlarida hasharchilar tuni bilan maktab hovlisini chiqindiga to'ldirib tashlaganiga guvoh bo'lardilar va ular ustidan sakrab o'tib o'quv binosiga kirardilar. Bu hodisa aslida o'qituvchini tahqirlash bilan barobar edi.

Bu yog'i esa undan-da haqoratli bo'lgan. Ma'lumki, 2013-yildan boshlab o'quvchilarni paxta terimiga jalb etish to'xtatildi. Tabiiyki, o'qituvchilar ham paxtaga jalb etilmasligi kerak edi. Biroq ijroiya hokimiyati o'qituvchi mehnatidan voz kecha olmadi. Shuning uchun ham u antiqa usul o'yab topdi. Unga ko'ra o'qituvchi maktabda darsini o'taveradi, lekin qanday bo'lmasin, kuniga 50 kglik paxta terish normasini bajarishi shart edi.

Bechora o'qituvchi buning ham ilojini topishga majbur bo'ldi. Endi u o'rniga paxta terish uchun mahalladan terimchi yolladi va unga kuniga 20 ming so'mdan haq to'ladi. Terimchi mahalladosh o'qituvchi nomiga tergan paxtasi uchun fermer xo'jaligi rahbari to'laydigan haqni ham, o'qituvchi kuniga beradigan 20 000 so'mni ham oldi. Bu holatlar ota-onalar va o'quvchilar ko'z o'ngida sodir etildi. Bunday vaziyatda o'qituvchining jamiyatdagi nufuzi haqida gap bo'lishi mumkinmi?

Hatto mustaqillik yillarida ham to'xtamagan bu hodisa o'qituvchilarning qalbida, yuragida ijroiya hokimiyatiga nisbatan ichki norozilik kayfiyatini shakllantirdi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchida o'z kasbiga nisbatan loqaydlik, befarqlikni qaror toptirdi. Yillar davomida o'qituvchi davlatning qo'lga qaram bo'lib kelayotgan edi. Bugun bunga fermer xo'jaligi rahbariga qaramlik ham qo'shildi. Qanday qilib?

O'qituvchi ham inson, u ham uy-joy quradi, to'y qiladi. Shuning uchun uyida 3-4 ta chorva moli saqlaydi. Lekin molini boqadigan yoki arqonlab qo'yadigan yaylovlar ijroiya hokimiyat tomonidan kimoshdi savdosiga qo'yilib sotib yuborildi. Oqibatda, endi o'qituvchi molini arqonlash uchun fermerdan joy so'rashga majbur. Fermer esa yaylov evaziga o'qituvchi oldiga 1-2 gektar g'o'zaga ishlov berish shartini qo'ydi. O'qituvchi noiloj bunga rozi bo'ldi. Aks holda hayoti o'xshamay qoladi. **Shu tariqa, bugungi kunda o'qituvchi turmushining qanday kechishi nafaqat davlatga, ayni paytda fermer xo'jaligi rahbariga ham bog'liq holat vujudga keltirildi. Ayting-chi, jamiyatda aslida kimning nufuzi ustun bo'lishi kerak edi?**

Qolaversa, maktablarda o'quvchi-o'qituvchi munosabati tobora taranglashib bormoqda. Ha, bugun o'qituvchiga oson emas. Aslida bunday holat vujudga kelishining ham o'z tarixi bor. U shundan iboratki, bizda yurt oydinlarimiz ilm-fandan shu darajada uzoqlashgan ediki, oqibatda maktablarda erkak o'qituvchilar sonining keskin kamayib ketishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini hatto tasavvur ham qila olmadilar. O'yab ko'rganlarning o'z vaqtida bildirgan ogohlantirishlariga esa quloq solmadilar. Oqibat nima bo'ldi? Oqibatda jamiyatda feminizatsiya yuz berdi. **Buning sababi – maktablardagi ta'lim-tarbiya ishi asosan ayol o'qituvchilar qo'lga o'tib ketganligidir. Yurt oydinlarimiz esa yuksak minbarlardan turib pedagoglarimizning 70–80 foizini ayollar tashkil etadi, deb ko'krak kerib maqtanishdi.** Feminizatsiya o'ta og'ir oqibatlarga olib kelayotganligini juda kech tushunishdi. Tushunishdi-yu, lekin maktablarda erkak o'qituvchilar sonini ko'paytirish borasida hozircha biror jiddiy chora ko'rganlari yo'q.

Feminizatsiya – bu o'g'il bolalar xarakterining ayollashuvi deganidir. Bu jarayon oqibatida maktabda ta'lim olgan o'g'il bolada ayol o'qituvchilar ta'sirida ayollarga xos xususiyatlar shakllandi. Bu esa maydagap, buyum-parast, oilali bo'lgach oila mas'uliyatini bo'yniga ololmaydigan, dunyoqarashi turmush o'rto'g'iga "otang menga u narsani olib kelmadi, bu narsani olib kelmadi", degan xotinchalish iddaolar bilan to'lgan boqimanda avlod shakllandi. Agar bugungi holat davom etaveradigan bo'lsa, maktablarda ishlayotgan pedagoglar nisbatida hali-beri erkak o'qituvchilarning ulushi ortmaydi. Bir vaqtlar Shvetsiyada maktabda ishlayotgan ayol o'qituvchilarning ulushi 17 foizdan 19 foizga ko'tarilganda, mamlakat parlamenti buni davlatning kelajagi uchun xavf deb bong urdi va o'qituvchining oylik maoshini ko'tarish orqali vaziyatni o'ngladi.

Mashoyixlardan biri **"Har qanday muvaffaqiyatli ta'lim islohotlari ota-onalarning ko'magi bilan amalga oshiriladi, agar farzandingiz olim bo'lishini istasangiz, o'zingiz hech yo'qsa tolibi ilm bo'ling"**, degan ekan.

O'zgalar tajribasini o'rganish, ilg'or jihatlarini ijodiy qabul qilish asosida nihoyat ta'limni rivojlantirishning Milliy dasturi ishlab chiqildi va u 2022-yilning 11-mayida Prezidentning "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida va "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'z ifodasini topdi.

Pedagogikada ta'limning sifati o'qituvchining sifatidan ustun bo'la olmaydi degan oltin qoida bor. Bugun maktablarimiz saviyali, mohir o'qituvchilarga muhtoj. Ularni tayyorlash esa avvalo pedagogika OTM-larining vazifasidir.

Xo'sh, saviyali o'qituvchi kim o'zi? O'zbek tilining izohli lug'atida saviya so'ziga **"shaxs, narsa yoki hodsining sifat, taraqqiyot darajasi"**, deb izoh berilgan. Binobarin, saviyali o'qituvchi bu ilmiy va madaniy salohiyati jamiyat talab etadigan darajada yuqori bo'lishi lozim bo'lgan shaxs.

Yuqori saviyali pedagog kadrlar tayyorlashga mas'ul OTMlarda bu boradagi ishlar ko'ngildagidekmi? Afsuski, yo'q. Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida olsak, ular hozircha bu vazifaning uddasidan chiqa olganlari yo'q. Buning asosiy sabablaridan biri – bu OTM talabalarining pedagogik amaliyotini zamon talabida yo'lga qo'ya olmaganliklaridadir. Mazkur oliy o'quv yurtlari rahbariyatida e'tiborsizlik, loqaydlik shu darajada kuchliki, buni talaba o'zi o'qigan maktabiga amaliyotga kelgan talabasi qo'lga berilgan yo'llanma varaqasi ham tasdiqlaydi. Varaqada oliy o'quv yurti rektori imzosi (agar haqiqatdan ham uniki bo'lsa) va OTM muhri bo'ladi xolos. Yo'llanma varaqasida talabani na ism-familiyasi, na fakulteti, na nechanchi kurs ekanligi yozilgan. Amaliyotga yuborilayotgan talabani nima maqsadda yuborilayotganligi, OTM tomonidan mazkur talabani amaliyot rahbari etib kim tayinlanganligi yozilmaganligi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bir oylik amaliyot davrida OO'Yudan hech kim kelib talabasi amaliyotni qanday o'tkazayotganligidan xabar olmaydi.

Biz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qancha serjilo raqamlar bilan tasvirlamaylik, maktablarimizning, ayniqsa qishloq maktablarining moddiy-texnik bazasi nochor ahvolda qolmoqda.

Yana bir muhim masala bu, ta'lim tizimining qanday boshqarilishi, unga kim rahbarlik qilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Men 1991-yildan keyin necha kishi Xalq ta'limi vaziri lavozimida ishlaganligini o'rganib chiqdim. Ularning soni hozirgi vazirimiz bilan 10 nafar ekan. Lekin ularning birortasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ishlab ko'rmagan (rahmatli Jo'ra Yo'ldoshevning ma'lum muddat maktabda ishlagani hisobga olinmaganda). Binobarin, maktabda ishlab ko'rmagan vazir oddiy maktablardagi real ahvoldan xabarsiz kishidir. Bugungi maktablarimizdagi asosiy qusurlarning ildizini ana shu omildan ham izlamog'imiz kerak.

Sh.Mirziyoyev yig'ilishda endi muallimlar yangi metodikalarni o'zlashtirib, bolalarga sifatli ta'lim berishlari zarurligini uqtirdi.

Afsuski, pedagogika OTMning birortasi biror-bir fan bo'yicha yangi metodika bo'yicha qo'llanma yaratgani yo'q. Bu holatni "Milliy tiklanish" gazetasida (30.04.2025) Jizzax davlat pedagogika universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori F.Jo'raqulovning **"Metodika o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni-yu muhit ham o'zgarmaydi"** nomli maqolasi ham tasdiqlaydi. Professor F.Jo'raqulov salkam bir betlik maqolasida har xil fikrlarni yozgan-u, lekin Metodika haqida deyarli hech narsa yozmagan. Chunki F.Jo'raqulov pedagog emas, siyosiy fanlar doktori. Shuning uchun ham u **metodika** haqida yoza olmaydi. Shuning o'ziyoq uning egallab turgan lavozimiga mos emasligini tasdiqlab turibdi. Afsuski, F.Jo'raqulovga o'xshagan "doktorlar" bitta-ikkita emas.

Xo'sh sifatli ta'lim deganda nimani tushuniladi?

Sifatli ta'lim – bu o'quvchining har bir fan bo'yicha Milliy o'quv dasturida belgilangan bilimlar minimumini dars davomida puxta o'zlashtirib olishini ta'minlaydigan va o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlay olish (kollaboratsiya); o'qituvchi bilan muloqot qila olish (kommunikativlik); o'zining mustaqil fikriga ega bo'lish hamda bu fikrni ifodalay olish, (tanqidiy – kritik fikrlash) yangiliklarga qo'l ura oladigan, yangi g'oyalar o'yab topadigan, ixtirochilik, muammolarni mustaqil hal eta oladigan (kreativlik) ko'nikmalarini shakllantiradigan ta'limdir.

Ta'lim sifatiga qo'yilayotgan bu talablar o'qituvchidan katta mehnat talab etadi.

O'qituvchi esa og'ir mehnatiga yarasha haq olishi lozim, albatta. Shubha yo'q, bu kunlar ham keladi.

Usmon JO'RAYEV,
Bo'ka tumanidagi

8-maktab o'qituvchisi,

Turon FA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi;

"Sog'lom avlod uchun" va

"El-yurt hurmati" ordenlari nishondori

Maktabga tayyorgarlik



Yozgi ta'til ham oxirlab bormoqda. U bolalar uchun erkinlik, dam olish va hordiq chiqarish davri. Erta tongdan uyg'onish, dars qilish shart emas, tartibli kun rejasi yo'q. Ammo o'quv yili boshlangach maktabga qayta moslashish bolalar va ota-onalar uchun biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu bois maktabga tayyorgarlik arafasida nafaqat o'quv qurollarini xarid qilish, balki boshqa bir qator jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Bilamizki, miya ham mushak kabi doimiy mashqni talab qiladi. Agar bola uch oy davomida hech narsa bilan shug'ullanmagan bo'lsa, o'quv yilining dastlabki kunlari qiyin kechadi: matematik ko'nikmalari zaiflashadi, husnixati yomonlashadi, tarixiy sanalar va nomlar yodidan chiqadi.

Mutaxassislarining aytishicha, uzoq ta'til ko'pchilik o'quvchilarda yozda bilim darajasining pasayishi "summer learning loss"ga sabab bo'ladi. Amerika ta'lim tadqiqotlari assotsiatsiyasi (American Educational Research Association)ning yirik ilmiy tadqiqotiga ko'ra, 1-sinf dan 6-sinfgacha bo'lgan o'quvchilarning 52 foizi har yili yozda bilimlarini yoddan chiqargan va bu holat besh yil davomida takrorlangan. O'quvchi-



moiy tarmoqlar emas, balki rivojlan-tiruvchi ilovalarni tavsiya qiling.

2. Uyqu rejimini asta-sekin tiklang.

Bola necha yosh bo'lmasin yetarlicha uyqu uning o'zlashtirishida muhim o'rin tutadi. Ta'til payti bolalar kech yotib, kech uyg'onishga odatlanib qoladi. Amerika uyqu tibbiyoti akademiyasi (American Academy of Sleep Medicine) olimlarining ta'kidlashicha, yetarli uxlamagan bolalarda xulq-atvor buzilishi, o'zlashtirishda qiyinchilik, diqqat jamlanmasligi holatlari ko'p uchraydi. Shuningdek, uyqu yetishmasligi depressiya, qon bosimi balandligi, semizlik kabi kasalliklar xavfini oshiradi.

Maktab boshlanishidan bir hafta oldin har kuni uxlash

Farzandingiz yangi o'quv yiliga tayyormi?

lar har yozda maktabda o'zlashtirganlarining o'rtacha 39 foizi, ayniqsa, ingliz tili va adabiyoti fanidan 17–28 foiz, matematikadan esa 25–34 foiz bilimlarini unutadi. Tadqiqotda bilimning pasayishi qisman irqiy, etnik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ham bog'liqligi ta'kidlanadi.

Shu jihatlardan kelib chiqib o'quv yili boshlanishiga yaqin ayrim bilimlarni esga tushirish, masalan, o'qish savodxonligi, karra jadvali, qoidalar, lug'atlarni dam olishga xalal bermagan holda takrorlash foydadan xoli emas.

– Tajribamdanma'lum, o'quv yil boshida o'quvchilarning deyarli barcha fanlardan bilimi pasaygani seziladi. Ayniqsa, o'qish savodxonligi, matematikadan hisoblashlari qiyinlashadi va tabiiyki, husnixati ham yomonlashadi. Bunga asosiy sabab ta'til davridagi uzilishdir, – deydi Romitan tumanidagi 6-maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilfuza Xalilova. – Buning oldini olish uchun o'quv yili oxirida ta'til davomida o'quvchini qiynamaydigan vazifalar beramiz, masalan, badiiy asar o'qish, ijodiy ish yozish, qiziqarli misol, masalalar yechish. Qolaversa, yozgi ta'tildan so'ng o'quvchilar biroz o'yinginroq bo'lib, darsda zerikib qolishadi, diqqatini jamlay olmaydi. Shuning uchun mashg'ulotlarni qiziqarli, noodatiy metod va o'yinlar bilan olib borishga harakat qilamiz.

Ta'kidlash joiz, bolalarni yangi o'quv yiliga tayyorlashda ota-onalarning o'rni juda muhim. Ular farzandlari bilan ko'proq suhbatlashishlari, qiziqishlari va muammolari haqida bilishlari kerak. Eng asosiysi, har qanday qiyin vaziyatda farzandiga yordamga tayyorliklari, qo'llab-quvvatlashlarini uqtirishlari lozim bo'ladi.

Ha, o'quv yili boshlanishi arafasida o'quvchilarning maktabga ham jismonan, ham ruhan tayyorgarligi eng muhim masala. AQSHning dunyoga mashhur Jon Hopkins bolalar markazi mutaxassislari ota-onalarga bu davrni yengillashtiradigan 6 qadamni tavsiya qilishadi:

1. Maktabga qaytish kutilmagan emas, rejalashtirilgan bo'lsin.

Ko'pchilik bolalar sentabrni intiqlik bilan kutsa, ayrimlari uchun bu birdaniga yuz beradigan stress manbayiga aylanishi mumkin. Buning oldini olish uchun:

- kichik yoshdagi bolalar bilan taqvim tuzing, unda o'quv yili boshlanishi kuni belgilanishi kerak;
- kattaroq yoshdagi bolalarga esa bu sanani qo'l telefoni yoki shaxsiy kundaligiga yozdiring.
- taqvimga maktabga oid vazifalarni ham qo'shing, ayniqsa o'smirlar uchun bu foydali eslatma bo'ladi.

Agar bola yozda virtual olamga "sho'ng'ib" ketgan bo'lsa, onlayn vaqtini aniq belgilash zarur. Masalan, faqat kunning ma'lum soatlarida. Bu vaqtda o'yinlar yoki ijt-

va uyg'onish vaqtini 15–30 daqiqaga oldinga surib boring.

3. Suhbatlashing.

Farzandingiz bilan maktabda bo'lishi kutilayotgan voqealar, tadbirlar haqida suhbat qiling. Yoz qanday o'tdi, nimalar esida qoldi, yangi o'quv yilida nimalardan xavotirda, keyingi ta'tilda nimalar qilishni xohlaydi – shunday masalalarni suhbat tarzida muhokama qiling. Uning xavotirlarini eshiting, maktabga qaytish, do'stlari bilan muloqot qilish, sinf muhitiga moslashish unga bosim bo'lishi mumkin. Qolaversa, maktabdagi unga yoqadigan narsalarni eslatib, ruhlantiring.

4. Sinfdozlari bilan muloqot qilsin!

Maktab – bu nafaqat darslar, balki do'stlik, muloqot va ijtimoiylashuv hamdir. Agar bola maktab boshlanishi oldidan xavotirda bo'lsa, sinfdoshlari bilan nazoratingiz ostida ijtimoiy tarmoq orqali gaplashib turishi yoki yuzma-yuz ko'rishishi juda foydali bo'ladi.

5. Muhim vazifalarni oxirgi kunlarga qoldirmang!

Bolalar ko'pincha ta'til payti bajarish uchun berilgan topshiriqlarni unutib qo'yishadi. Bu masalani ta'tilning oxirgi kunlariga qoldirish esa bolada ham, ota-onada ham ortiqcha stressga sabab bo'ladi. Shuning uchun topshiriqlarini tez-tez eslatib turing.

Yangi o'quv yiliga xaridlar uchun esa budjetni farzandingiz bilan birga hisoblang va xarid qiling. Ushbu jaryonda yengil matematik masalalar, moliyaviy savodxonlik mashqlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Bu maktabga qaytishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

6. Mukammal bo'lmaslik – normal holat.

Qanchalik harakat qilgan bo'lsangiz ham farzandingiz maktabga qaytishda turli hissiyotlarni boshdan o'tkazishi mumkin va bu butunlay normal holat. Uni o'z his-tuyg'ularini ochiq ifodalashga undang. Agar zarurat bo'lsa, maktab psixologi, o'qituvchilarga murojaat qilishdan tortinmang.

O'quv yili boshlanganida esa o'qituvchilari farzandiningizning bajargan topshiriqlariga e'tibor berganiga ishonch hosil qiling – bolada "mening mehnatimni hech kim ko'rmadi" degan his paydo bo'lmasin.

Hammasi o'z joyiga tushishi uchun biroz vaqt va sabr kerak bo'lishi mumkin. Maktabga qaytishdan keyingi dastlabki haftalar yaxshi o'tsa, dam olish kunlari birga sayr qiling yoki kichik sayohat tashkil eting. Bu ta'limga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Unutmang, farzandingiz har qanday vaziyatda sizga ishonishini, uni doim qo'llab-quvvatlashingizni his qilishi kerak. Bu esa oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, ta'limdagi muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Shohsanam MAHMUDOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

MEN ANGLAGAN

Shukronalik



Rahmatli otamning "O'qi, bolam, odam bo'lasan" degan gapini bot-bot eslayman. O'shanda bu gapning ma'nosini yaxshi tushunmaganman. Otam ham, onam ham o'qimaganliklari uchun "nahotki, o'qimagan odam – odam sanalmasa", deb o'yga tolardim. Endi esa bu gaplarning mag'zini chaqqandekman. Otam kolxoz dalalarida qishin-yozin suvchilik qilgan, ammo eng katta orzusi biz farzandlarining oliy ma'lumotli, ziyoli insonlar bo'lishimiz edi.

Hozir validam Muslima aya muborak 88 yoshda. Oppoq sochlari, yuzidagi taram-taram ajinlar-u qadoq qo'llarida hayoti og'ir mehnat bilan o'tgani, oila, farzandlar tashvishi, ora-sirada yuz bergan yo'qotishlar aks etayotgandek bo'ladi. Hali ham so'zlari salmoqli, fikrlari teran, yuz-ko'zidan mehr balqib turgan onajonim:

– Maktabga bormaganligimdan ming afsuslar qilib yurardim. Kasalligim sababli o'qiy olmaganman... Har kimning ham farzandi o'qisin, olim bo'lsin, – deydi ko'zlariga yosh olib.

Hozirgidek esimda, O'zbekiston davlat jahon tili universiteti (sobiq chet tillar pedagogika instituti) ga o'qishga kirganimni eshitgan sinf rahbarim, marhum Bobomurod Nurimov ham nihoyatda xursand bo'lgandi. Chunki ota-onamni azaliy orzusiga yetkazish uchun bor kuch-g'ayratim bilan o'qirdim. Talabalik davrimda stipendiyamdan orttirib onamga sovg'a olib kelganimda uning quvonchi ichiga sig'mas, olib kelganim oddiygina paxta ro'mol bo'lsa-da, ko'zlariga surtib, quvonchdan yuzi porlardi, meni qayta-qayta duo qilishdan erinmasdi. Xorazmda azim yurtidan kelib o'qiyotgan kursdoshim Gulchehra bilan ahd-paymon qildik, buni uydagilar qanday qarshi olishi noma'lum edi. Uyg'a kelib ota-onamga bildirganimda "Qanday yaxshi, ikkita oliy ma'lumotli farzandlarim orzularimni amalga oshirib, bizni xursand qilib yuradi", deya yanada quvongandi.

Ota-onam orzu qilgandek mehnat faoliyatimni qishloq maktabida boshladim va yillar o'tib kasbiy faoliyatimda yuksalish boshlandi. Xalq ta'limi tizimida 37 yildan buyon faoliyat yuritib kelaman. Ayolim va uch nafar (ikki qiz va bir o'g'il) farzandim ham o'zim kabi o'qituvchilikni tanlashdi.

O'tgan davr mobaynida dastlab tuman xalq ta'limi bo'limida, so'ngra viloyat xalq ta'limi boshqarmasida turli lavozimlarda faoliyat yuritdim. Bir qator xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlarda ishtirok etdim. Esda qolarlisi, 1999-yil yakunida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan tashkil etilgan tanlovda g'olib bo'lib, Monpelye shahrida malaka oshirish kurslarida tahsil oldim. 2019-yili esa Moskvada o'tkazilgan "Xalqaro baholash dasturlari va unda munosib ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish" mavzusida tashkil etilgan xalqaro seminarda tanlov g'olibi sifatida ishtirok etdim. Ayni kunda Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim bo'yicha metodist vazifasida faoliyat yuritib kelmoqdaman.

Avvalo, yurtimizning tinchligi va xotirjamligi shu yurtda yashayotgan insonlar uchun eng katta boylikdir. Qachonki inson xotirjam va tinch-osoyishta yashasa oilasida, ishida baraka bo'ladi. Ro'zg'ori tinch, farzandlari yetuk inson bo'lib voyaga yetadi. O'zi sog'lom, fikri teran inson, albatta, ko'zlagan maqsadiga erishadi. Ayniqsa, kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi yo'lida olib borilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlari menga olam-olam kuch-g'ayrat bag'ishlaydi, izlanishga, ijod qilishga undaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi sa-

HAQIQAT

maradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilinishi yurtimizda har bir bolaning ta'lim olishiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning namunasi bo'ldi. Chunki maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimiga yuqori salohiyatli kadrlarni jalb etish, amalga oshirilayotgan islohotlarning eng quyi tizimgacha yetib borishini ta'minlash, tizim xodimlarini munosib rag'batlantirish hamda vertikal boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish orqali sifatli ta'limga erishish osonlashadi. Shu maqsadda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman(shahar) bo'linmalari xodimlarini ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish tizimining joriy etilishi minglab mutaxassislarni, jumladan, kaminani ham benihoya xursand qildi.

Ikki nafar farzandimni oylik maoshim hisobidan to'lov-shartnoma asosida OTMda o'qitganman. Ta'lim boshqarmasida qariyb 25 yildan buyon ishlayman, ammo oylik maoshimiz kam, nafaqaga chiqqan o'qituvchilar ham oylik ish haqlari kamligidan juda kam miqdorda nafaqa olayotganlarini bilaman. Shunday bo'lsa-da oylik yoki nafaqa kamligidan biror marta ham nolidanliklarini eshitmaganman. Hozir ming dollar va undan ortiq miqdorda oylik maosh bilan ishlayotgan o'qituvchilar soni kundan kunga oshib borayotganligi ham quvonarli hol. Bir necha yillar oldin o'qituvchilarga navbatsiz va foizsiz ravishda "Neksiya-3" avtomobillarining berilishi juda ko'plab o'qituvchilarning shaxsiy mashinali bo'lish orzularini ro'yobga chiqardi. Bu ham o'qituvchilar uchun munosib rag'bat bo'ldi desam yanglishmagan bo'laman.

Farmonga ko'ra 2025-yil 1-sentabrdan boshlab umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori lavozimining bazaviy tarif stavkasi 20 foizga, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktori o'rinbosari lavozimining bazaviy tarif stavkasi 15 foizga oshirilishi ta'lim tizimining mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, xalqaro va respublika fan olimpiadalarida ishtirok etib, sovrinli o'rinlarga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilarga ajratilayotgan katta miqdordagi pul mukofotlari, xususan, ularni tayyorlagan o'qituvchilarga ajratilayotgan mablag'lar, tanlovlarda o'quvchilari sovrinli o'rinlarga ega bo'lgan, bitiruvchi o'quvchilarining kamida 90 foizi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lgan maktab direktorlariga berilayotgan imtiyozlar tufayli ta'lim sohasida kecha-yu kunduz mehnat qilayotgan muallimlarda shukronalik tuyg'usi oshmoqda. Va bu holat ta'limning sifatiga ham ijobiy ta'sir etishi aniq.

Ishdan bo'sh vaqtlarim onamni ziyorat qilib, uzoq suhbat quraman. Yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari, ta'limdagi o'zgarishlardan so'zlab beraman. Mening so'zlarimni maroq bilan tinglagan onam:

– Gaplaringni eshitib, qaytadan yosh bo'lib qolgim keladi, qani edi, bizning yoshligimizda shu ishlarning ozginasi bo'lganida edi, men ham nimalar qilmasdim. Mayli, shunisiga ham shukr, men erisholmagan yutuqlarga farzandlarim, nevaralarim erishyapti. Buning uchun Yaratganga ming bor shukr, – deydi.

Menimcha yurtimizdagi barcha onalar xuddi onamdek fikrlaydi. Axir har bir ona farzandining kamolini ko'rishni, yutuqlaridan quvonishni, tinch va osoyishta xonadonda farzandlari, nabiralari qurshovida bekam-u ko'st yashashni xohlaydi.

Shu o'rinda buyuk ajdodlarimizdan biri Mavlono Rumiyning ushbu hikmatlarini esladim: "Yaxshi inson o'zidan baxt, yomon inson o'zidan tajriba, xatkor inson o'zidan dars, mukammal inson o'zidan iz qoldiradi". Shu hikmatni eslar ekanman, ota-onamizning biz farzandlarini baxt sari yetaklaganini, mukammal inson bo'lib o'zidan iz qoldirishga undaganini ko'z oldimga keltirib, Mavlono Rumiyning necha asrlar oldin aytgan hikmatona bitiklarining qanchalik hayotiy ekanligiga amin bo'laman.

Boboyor OCHILOV,
Qashqadaryo viloyat maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi metodisti,
Xalq ta'limi fidoyisi



JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili xavfli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish natijasida 600 millionga yaqin inson jabrlanadi. 420 ming kishi mikroorganizmlar yoki kimyoviy moddalar bilan ifloslangan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish oqibatida vafot etadi. Achinarlisi, ularning 125 ming nafarini 5 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshidagi bolalardir.



Bolalarning oziq-ovqat xavfsizligi ovqatlanish ratsioni uni to'g'ri tashkil qilish ko'rsatkichi bilan aniqlanadi. UNICEF bergan ma'lumotlarga ko'ra, yosh bolalar ye-

Xurshid Umarov. – Outsorsing kich-kintoylarni to'g'ri va sog'lom ovqatlanirishning eng ma'qul yo'li. Hozirgi kunda yurtimizdagi mavjud 6 798 ta davlat maktabgacha ta'lim muassasasi-ning 1 172 tasida 83 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan outsorsing usulida ovqatlanirish yo'lga qo'yilgan. Qolgan 5 626 tasida an'anaviy (ta'minotchilar tomonidan oziq-ovqat yetkazish orqali) usulda ovqatlanirish amalga oshirilmogda. Outsorsing yo'lga qo'yilgandan so'ng tashkilot tomonidan bolalarga ovqat tayyorlash uchun professional oshpazlar jalb qilinadi. Bog'cha rahbariyati esa oshxona bilan bog'liq muam-molarni o'ylamasdan bemalol asosiy vazifasiga e'tibor qaratishi mumkin. Shuningdek, xizmat ko'rsatish boshlagandan so'ng oshxona va ovqatlanish bilan bog'liq barcha moliyaviy va texnik masalalar bilan ham o'zimiz shug'ullanamiz.

Hech bir ish nazoratsiz yo'lga qo'yilmaydi. Outsorsing

Autorsorsingga o'tish istiqbollari

tarli va ratsion bilan ovqatlanmaydigan mamlakatlar 63 ta bo'lib, ularning qatorida O'zbekiston ham bor.

Bolalar orasida to'g'ri ovqatlanish tizimini yo'ga qo'yish maqsadida 2025-yil 6-yanvarda Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, outsorsing usulida sog'lom ovqatlanirish tashkil etiladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni, ro'yxati va boshqa tegishli ma'lumotlar shakllantirilib, ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Autorsorsing inglizcha "outsourcing" so'zidan olingan bo'lib, biror-bir tashkilot yoki korxona o'z faoliyatidagi ayrim ish, xizmat yoki vazifalarni mustaqil tashqi tashkilotga(ya'ni, boshqa mutaxassis tashkilotga) topshirishi tushuniladi. Bundan asosiy maqsad xizmat sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, asosiy faoliyatga e'tiborni qaratish, ish samaradorligini oshirishdan iborat.

Deylik, bir maktabgacha ta'lim tashkiloti ovqat tayyorlash ishini biror-bir ixtisoslashgan kompaniyaga topshirsa – bu outsorsing bo'ladi.

Davlat yoki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti(ya'ni, bog'cha) o'z tarbiyalanuvchilarini ovqatlanirish uchun maxsus ovqatlanish xizmatini ko'rsatuvchi tashqi kompaniya bilan shartnoma tuzadi va bu kompaniya:

- ovqatni tayyorlaydi;
- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qiladi;
- ovqatni yetkazib beradi yoki bog'chaning o'z oshxonasida pishiradi;
- ovqat va ovqatlanish bilan har qanday vaziyat uchun shu tashkilot javobgar bo'ladi.

Autorsorsingni zimmasiga oladigan tashkilotlar uchun dastlab tanlov (tender) e'lon qilinib, bog'cha yoki tegishli tuman hokimligi yoki maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan oshxona xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar tanlab olinadi. So'ng g'olib bo'lgan tashkilot bilan shartnoma tuziladi. Shundan keyin, har kuni bolalarga ovqat pishirilib, taom sifati, xavfsizligi va gigiyenasi tashkilot tomonidan nazorat qilinadi.

– Ayni paytda bolalarning ovqatlanish ratsioni ularning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim moddalar bilan emas, aksincha, tuz va zararli yog'larga boy, yuqori darajada qayta ishlangan va shakar bilan shiralanitirilgan mahsulotlar bilan to'lgan, – deydi tadbirkor



usulida sog'lom ovqatlanirishni tashkil etish jarayonlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar hamda ota-onalar va boshqa jamoatchilik vakillaridan iborat kuzatuv kengashlari a'zolari tomonidan doimiy kuzatib turiladi.

– Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi bilan birgalikda mavsumlar kesimida "Yagona mavsumiy taomnoma" ishlab chiqilgan, – deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Sog'lom ovqatlanirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Aziz Aliyev. – Bunda davlat MTtlarida "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida oziq-ovqat xarajatlarining(natura ko'rinishida) hisobi "Bolalar bog'chasi" axborot tizimida yaratilgan modullar orqali yuritiladi. Shu bilan birga mazkur hisobot elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimiga avtomatik tarzda yuboriladi.

Bog'cha bolalari uchun ovqat tayyorlash jarayonida diyetolog va texnologlarning ishtiroki juda muhim, chunki bu yoshdagi bolalar o'sish va rivojlanish bosqichida bo'lib, ularning organizmi to'g'ri o'sishi uchun xavfsiz va mazali taom kerak. Bolalar ovqatlanishining sifati ko'p omillarga bog'liq. Outsorsing xizmatiga o'tishdan maqsad ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanirish masalalarini yanada yaxshilash, oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlanishiga erishishdan iborat. Bolajonlarning bog'cha yoshidan to'g'ri ovqatlanishga odatlanishi esa ulg'ayganda noto'g'ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladigan turli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fayoza AVLAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Tajriba


Xorijiy tillarni o'qitishda 5E modeli

Bugungi kunda chet tillarini samarali hamda tez fursatda o'rgatishda turli zamonaviy metod va modellardan keng foydalanilmoqda. Avvalgi yillarda kashfiyot sifatida 4K modeli samarali metod hisoblangan bo'lsa, hozir yangi model, ya'ni 5E modelini qo'llash ancha manfaatli bo'lmoqda.

Mazkur modelga asoslangan metodik yondashuv XX asr oxirida (1980-y.) AQSHda yaratilgan. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, 5E modeli **Biological Sciences Curriculum Study (BSCS)** nomli ta'lim-tadqiqot markazi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, dastlab model tabiiy fanlarning (biologiya, kimyo, fizika) o'qitish ta'limini interaktiv va samarali qilish uchun mo'ljallangan edi. Keyinchalik nafaqat tabiiy fanlarda, balki boshqa barcha turli fanlarda ham muvaffaqiyatli qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunda o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat ilmiy institutida o'qituvchilarga 5E modeli yuzasidan seminar-treninglar tashkil qilinmoqda. Bu orqali malaka oshirayotgan o'qituvchilar maktab ta'limida o'quvchilarning chet tillarini tezroq mukammal o'rganishiga hissa qo'sha olishadi. Mazkur model muallifi **Rojer V. Baybi** shunday deydi: 5E o'quv modeli o'quvchilarga faol ishtirok, o'rganish, tushuntirish, takomillashtirish va baholash orqali o'z bilimlarini mustaqil shakllantirishga yordam beradi.

5E modeli nomidan ma'lumki, 5 ta qismdan iborat: **engage, explore, explain,**

elaborate, evaluate. Ushbu chizmadagi har bir bo'lak uzviy bog'liqlikka ega.



5E modeli

* 1-tarkibiy qism – **Engage** (jalb qilish). Bu o'quvchilarning diqqatini mavzuga to'laonli qaratish va ularni darsga qiziqitirish, mavzu bilan bog'liq avvalgi bilimlarini faollashtirish demakdir.

* 2-tarkibiy qismi – **Explore** (o'rganish). O'quvchilar mustaqil tarzda yangi ma'lumotlarni izlab topishadi. Qolaversa, jamoaviy ishlab, tajriba, muammoli vazifalar bilan shug'ullanishadi. Pedagoglar esa bu bosqichda kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

* 3-tarkibiy qism – **Explain** (tushuntirish). Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini ochiq bayon qilishadi, o'qituvchi esa bilimlarini tizimlashtirib beradi. O'quvchi barcha egallagan asosiy nazariy tushunchalarini shu bosqichda

dalillab beradi va yangi atamalar, qonunlar va qoidalar tushuntiriladi.

* 4-tarkibiy qism – **Elaborate** (takomillashtirish). O'rganilgan bilimlar yangi vaziyatlarda qo'llanilishi amaliy mashg'ulotlar, loyihalar, chuqurlashtirilgan vazifalar orqali sinab ko'riladi.

* 5-tarkibiy qism – **Evaluate** (baholash) hisoblanadi. Bunda o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini ko'rsatadi. Yakunda baholash jarayoni testlar, loyiha himoyasi, taqdimotlar yoki savol-javob orqali hamda o'quvchining rivojlanishi va bilim darajasi aniqlanib umumlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Masalan, 6-sinf ingliz tili darsligida "Daily routine" mavzusini 5E modeliga asosanib, quyidagi ketma-ketlikda o'tish mumkin:

Engage. O'qituvchi o'quvchiga savol beradi:

"What do you do every morning?".

O'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki bildirishadi. (e.g., "I brush my teeth", "I eat breakfast".) Duskaga bir nechta oddiy kundalik harakatlar aks etgan rasmlar ilib qo'yiladi: *wake up, brush teeth, go to school* va hokazo.

Explore. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga rasmlar va harakat nomlari tarqatiladi. Jamoa a'zolari rasmlar va so'zlarni moslab to'g'ri ketma-ketlik yaratadilar: (wake up → brush teeth → eat breakfast → go to school).

Explain. O'qituvchi o'quvchi to'pishga qiyalayotgan yangi so'zlar va iboralarni tushuntirib beradi:

"I wake up at 7 o'clock".

"I go to school at 8 o'clock".

Elaborate. O'quvchilar o'zlarining har kungi kundalik tartibini yozishadi:

"I wake up at 7 o'clock. Then I brush my teeth. After that, I eat breakfast". So'ngra jamoa a'zolari juftlikda o'zaro hikoya tarzida og'zaki bayon qilishadi.

Evaluate. O'quvchilar 5-6 gapdan iborat kichik matn yozadilar. Masalan, "My Daily Routine" (Mening kun tartibim) mavzusida. Shundan so'ng o'qituvchi ularning ishi qanchalik to'g'riligini tekshiradi va mavzu yuzasidan qisqacha mulohaza bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, dars mavzusini aynan 5E modeli asosida olib borish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, 5E modeli asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni faollikka, mustaqil tadqiqot olib borishga undaydi. O'z-o'zini o'rganish va refleksiya jarayonlarini rag'batlantiradi, bu esa XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chet tilini o'qitishda o'quvchining faol ishtirokini ta'minlab, nutq faoliyatining barcha turlarini uyg'un rivojlantirish imkonini beradi.

Ulug'bek ALIMOV,
Angren shahridagi
13-maktab o'qituvchisi

Fikr

Tanqidiy fikrlash – raqobatbardosh ta'limning kaliti

Ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi murakkab jarayonlar har bir insondan tezkor, aniq va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Shunday bir davrda yosh avlodni faqat bilim bilan emas, balki mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarga samarali yechim topish ko'nikmalari bilan ham qurollantirish zarur. Bu borada O'zbekiston ta'lim tizimi ham faol qadamlar tashlamoqda. Ammo o'zgarishlar samarali bo'lishi uchun faqat ilg'or tajribalarni ko'chirish emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlash – bu har qanday axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni chuqur tahlil etilish, asosli shubha bilan qarash va xulosalar chiqarishga qaratilgan jarayondir. Muammolarni hal qilish esa bu fikr-mulohazalarni amaliyotga tatbiq etish, mavjud holatga ijodiy va samarali yechimlar topishni anglatadi. O'zbekistonning ta'lim siyosati, aynan ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezonlar, jumladan, PISA talablari asosida o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishni maqsad qiladi.

Shu bilan birga, tizimda hali hal etilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Masalan, ko'pgina maktablarda yodlashga asoslangan, an'anaviy ta'lim usullari ustun. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, savol qo'yish, tahlil qilish kabi ko'nikmalarining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. O'qituvchilarning zamonaviy metodikalarini yetarli darajada egallamagani, qishloq maktablarida infratuzilmaning pastligi, interaktiv vositalar va yuqori tezlikdagi internetning yetishmasligi mavjud muammolardan biridir. O'quv dasturlarining barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'lishi, shaxsiy ehtiyojlar va hududiy xususiyatlar hisobga olinmasligi ham tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvga zid keladi.

Biroq bu borada ijobiy siljishlar ham kuzatilmoqda. Masalan, "Million dasturchi" loyihasi orqali yoshlar raqamli savodxonlik va muammoni hal qilish ko'nikmalarini egallamoqda. STEAM o'quv dasturlari, xususan, robototexnika, 3D modellash va muhandislik loyihalari orqali o'quvchilar analitik va ijodiy fikrlashga jalb qilinmoqda. Loyihaviy va muammoga yo'naltirilgan

ta'lim yondashuvlari ham asta-sekin kengaymoqda. Masalan, o'quvchilar mahalliy ekologik muammolarni o'rganib, amaliy yechimlar taklif qilmoqda, bu esa nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki jamoaviy ishlash va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantiradi.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchilar zamonaviy metodlarni o'zlashtirishi, doimiy ravishda malaka oshirib borishi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribani, xususan, Finlandiya, Singapur, AQSH ta'lim tizimidagi ilg'or amaliyotlarni tahlil qilib, mahalliy sharoitga moslashtirish lozim. Misol uchun, Finlandiyada o'quvchilar ochiq savollar asosida bilim oladi, AQSHda esa STEAM orqali analitik va san'atni uyg'unlashtiruvchi yondashuvlar keng qo'llaniladi. Bularning barchasini "O'zbek ta'lim modeli" doirasida milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish mumkin.

Mahalliy imkoniyatlardan to'laonli foydalanish, xususan, qishloq joylarda suv resurslari, ekologiya, organik dehqonchilik, shahar maktablarida esa dasturlash, raqamli marketing kabi yo'nalishlarda loyihalar tashkil qilish,

o'quvchilarning real hayot bilan aloqadorligini kuchaytiradi. Ota-onalar va mahalliy jamoalarni jalb etish, "Yosh innovatorlar" kabi tanlov va ilmiy ko'rgazmalar tashkil qilish, muvaffaqiyatli ishtirokchilarni rag'batlantirish kabi tashabbuslar esa o'quvchilarda motivatsiya va mas'uliyat hissini oshiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mamlatning barqaror va raqobatbardosh kelajagini ta'minlashda muhim omildir. Zamonaviy yondashuvlarni mahalliy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali biz nafaqat PISA kabi xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishamiz, balki fikrlay oladigan, mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol yoshlarni voyaga yetkazamiz. Bu esa har bir o'qituvchining fidokorligi, o'quvchining intilishi va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakati bilan amalga oshishi mumkin.

Qahramon NIYOZOV,
Namangan davlat universiteti
"Anatomiya va fiziologiya"
kafedrasining o'qituvchisi



Kun mavzusi

Ustama nima bo'ldi?



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining oʻrnak koʻrsatgan xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra, maktablarda ilgʻor tajribali oʻqituvchilarni ragʻbatlantirish direktor jamgʻarmasini tashkil etish va uning mablagʻlaridan foydalanish tartibi joriy etildi. Bu borada joylarda ishlar adolatli olib borilyaptimi, oʻqituvchilar fikri qanday? Ularning “oh”lariga quloq tutamiz.

Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUM fizika fani oʻqituvchisi:

– Ustama – nisbiy tushuncha. Toʻgʻri, bunda oʻqituvchi maoshi oshadi, ammo bola bilan ishlash-chi? Hozir hammamiz oylikni oshirish paydamiz. Taklifim, ustama sinf oʻquvchilarining bilim sifatiga qarab berilsin. Chunki ayrim ustozlar bolaga bilim bera olmaydi, ularda metodika yetarli emas. Ikkinchidan, yosh mutaxassislar ishga qabul qilinsa, 1-2 yil oʻtar-oʻtmas u ustamaga, toifaga topshirishni boshlaydi. Bu katta ehtimol bilan maoshni oshirish uchun, ammo afsuski, bu yoshlarning aksariyati bola, ota-ona bilan ishlolmaydi. Pedagogimiz, diqqat markazimizda, avvalo, bola, uning shaxsi turishi kerak.

Murodjon UMAROV, Shahrixon tumanidagi 46-maktabning fizika fani oʻqituvchisi:

– Oʻqituvchi olayotgan oyligi roʻzgʻor tebratishga yetmaganidan keyin qandaydir qoʻshimcha daromad izlaydi. Aslida oʻz ustida ishlab, toifasini oshirib, olimpiada, koʻrik-tanlovlarga oʻquvchi tayyorlashi maqsadga muvofiq emasmi? Bundan besh yil avval yetakchi oʻqituvchilar ishtirokida tumanda yigʻilish boʻldi. Maqsad

STEAM fanlarini oʻqitishni samarali yoʻlga qoʻyish edi. Shunda oʻrtaga savol tashlandi: qanday oʻqitish kerak, buning uchun nima qilish kerak? Bir ustoz: avvalo, bola yaxshi oʻzlashtirishi uchun qorni toʻq boʻlishi kerak, oʻqituvchining esa oʻquvchini oʻqitishdan boshqa tashvishi boʻlmasligi kerak, dedi. Xulosa oʻzingizdan.

Hamza XUDOYBERDIYEV, Gʻijduvon tumanidagi 32-maktabning matematika fani oʻqituvchisi:

– Shu ustamani yoʻqotib, ishlagan yiliga qarab foiz qoʻshish amaliyotini joriy qilish kerak, shunda nohaqlik boʻlmaydi.

Xosiyatxon JUMABOYEVA, Amudaryo tumanidagi 37-maktabning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi:

– 823-qaror chiqqandan soʻng maktabimizda ustama soʻzi unutildi. Bir bandini bajarsang, bir bandiga qoʻling yetmaydi. Tirishib-tirmashib yetsang, kengash aʼzolari vahima qilib ming chigʻiridan oʻtkazadi. Topib olishgani: “qayta toʻlatishadi”. E bor-e, deb jamoa bilan birgalikda sertifikat olish harakati boshladik. Buniyam olish oson emas ekan, shu yilning aprel oyida uchinchi urinishda oldim. Olloh nasib etsa, uch yilgacha 50 foiz ustama olaman.

Sayyora YORQULOVA, Olmaliq shahridagi 14-maktab oʻqituvchisi:

– Aytam tilim, aytmasam dilim kuyadi, deganlaridek, ustama hujjat tayyorladim. Tunov kuni 10 foiz, qayta hisoblashganda 15 foiz, bugun esa shu foizlardan ham ayrildim. “Sinfidan tashqari ishlar” bandida nechta fandan dars bersam, hammasidan toʻgarak oʻtishim kerak ekan. Iltimos, shu bandlar boʻyicha vazirlik bizga toʻliq maʼlumotlarni keltirsin. Ustamaga ball belgilashga kelsak, ixtiyor kengash aʼzolarida emas, ular faqat “qoʻgʻirchoq”, rahbarlar maʼkul koʻrsa maʼqullaydi, boʻlmasa rad qiladi. Dardimizni “Maʼrifat” gazetasi-dan boshqa hech kim eshitmayapti.

Nargiza BEKNAZAROVA, Olot tumanidagi 24-maktabning tasviriy sanʼat fani oʻqituvchisi:

– Bechora oʻqituvchi yil davomida qilgan mehnatidan ozgina rohat koʻrsa nimadir kamayadimi? Boshqa sohalarida nega sansalorlik yoʻq? Faqat oʻqituvchining uch soʻm puli koʻrinadi. “Oʻqituvchi – millat yuzi” degan purno soʻzlar sarobmi?

Rahbaroy MELIBOYEVA, Uchkoʻprik tumanidagi 5-maktab oʻqituvchisi:

– Metodik qoʻllanmamni ikki yildan beri “koʻchirilgan” deydi, zero “Marifat”da chiqadi. “Samarali metodik tavsiya” deb “Maʼrifat” tanlovining qish fasli gʻolibi boʻldim. Pulga sotib olganlar ishi tuman, viloyatda ommalashdi. Men tunni tongga ulab metodlarimni yoritgandim. Maktabda ommalashdi. Endi sotib olaman. Afsuski, ommalashtirishni pullayotganlar ham oʻz hamkasblarimiz. Ular olayotgan “limon” bir kun farzandlariga “limonad” boʻlib qaytmasinda ishqilib!

Kamola RUSTAMOVA:

– Fondga kam pul ajratilyapti ekan, keyingi yillarda moddiy yordam oluvchilar koʻpayibdi. Smetaga kam pul qoʻyilganmish, ustamachilarni kamaytirisharmish – bu nohaqlik-da!

Sojida TUYMAYEVA, Pastdargʻom tumanidagi 39-maktabning ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi:

– Kurashinglar, ustozlar, ishlagan boʻlsangiz, ragʻbat olasiz, rahbarlar choʻntagidan berayotgani yoʻq. Shuning uchun maktabda fidoyi ustozlar kamayib ketyapti. Mehnati qadrlanmasa, ishlamayotganlar ragʻbatlantirilsa alam qiladi-da! Bu ishlarni amalda bajarmasdan “yoʻlini” bilganlar, qonun-qoidasini qogʻozda bitirganlar ustamaning egasi boʻlyapti.

Oʻzim ham ommalashtirishga oʻz metodlarimni yozib platformaga joyladim. Viloyatda ommalashdi. Hamma mezonlardan ball oldim, faqat oʻtkazgan tadbirlarimni bexabar qolib adliyadan oʻtkazmabman. Bu ishni oʻqituvchi bajarishi kerakmi? Ijodkorman, ijod namunalarim, maqolalarim gazetada doimiy nashr etiladi. Oʻquvchilarga kitobxonlikni, maʼnaviyatni targʻib qilishda birmuncha ishlar olib boraman. Lekin bu mezonlar ichida ijodkorlarga xos hech narsa yoʻq. Haqiqatlar bahslarda yaraladi...

Afsuski, bu soʻzlar ayni haqiqat. Ustozlar fikrlaridan taʼsirlanib shu maqolani yozdim. Nohaqlikka guvoh boʻlayotgan, mehnati qadrlanmayotgan oʻqituvchilar koʻp hollarda ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan salbiy ahvolga tushib qoladi. Bu ishdan soʻvishiga, taʼlim sifati susayishiga, darslar samarasiz boʻlishiga olib keladi. Buning uchun nohaqlikdan himoya qiladigan tizimlarni kuchaytirish, jamiyatda oʻqituvchilar nufuzini oshirish darkor.

Hilola MAMAJONOVA,

Asaka tumanidagi

37-maktabning

boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Ogʻriq

Ommalashtirish nima uchun kerak?



Vazirlar Mahkamasining “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining oʻrnak koʻrsatgan xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarorida oʻqituvchilarning ishlari ommalashtirilgani uchun alohida ball berilishi koʻrsatilgan.

Maʼlumki, ommalashtirish platformasi yaratilishidan oldin metodik tavsiyalar maktab, tuman, viloyat miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilardi. Yaʼni metodik kengash tomonidan ishlar koʻrib chiqilib, metodik yigʻilishlarda muallif tomonidan taqdimoti oʻtkazilardi. “Boshlangʻich sinf darslarida oʻzbek xalq maqollaridan foydalanish”, “Tarbiyaviy soatlarda oʻquvchilarning maʼnaviy dunyoqarashini rivojlantirish”, “Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan tanishtirishning qulay usullari” kabi metodik tavsiyalarim tuman miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etilgan. Metodlarim orqali yosh oʻqituvchilar bilan hamkorlikda ishlashga imkon yaratilgandi. Ammo...

“Maʼrifat” gazetasining har bir sonini kuzatib boraman. Respublikamizdagi ijodkor oʻqituvchilarning ilmiy maqolalari, metodik tavsiyalarini oʻqib, oʻzim uchun kerakli maʼlumotlar toʻplashga harakat qilaman.

Gazetaning 2024-yil 10-yanvar sonida “Darsni betakror lahzalarga aylantiramiz” nomli maqolam chop etilgan edi. Ushbu maqolam “Samarali metodik material” deb topildi va “Qish fasli gʻoliblari” qatoridan joy oldim. Shu maqolamni metodik tavsiya sifatida yangi metodlar bilan boyitib, mart oyida ommalashtirish platformasiga joyladim. May oyida metodik tavsiyam “texnik xato va sifatsiz joylashtirilgan” deb rad etilib, 0 ball qoʻyildi. Bu yil esa platformaga joylashtirishdagi xatolarimni oʻrgandim. Qaytadan metodik tavsiya yozdim. “Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy metodlarning ahamiyati” mavzusidagi metodik tavsiyam “Maʼrifat” gazetasining 2025-yil 26-fevral sonida chop etildi. Uni ham ommalashtirish mezonlari asosida platformaga joyladim. Baholash kuni keldi. Ishim koʻrib chiqilgan va “koʻchirilgan” deb yana 0 ball qoʻyilgan. Hayron qoldim – kimdan koʻchirgan ekanman?

Platformaga joylashtirish jarayonida bir yosh ustozning gapi qulogʻimga chalindi:

– Metodik tavsiya yozish uchun qancha vaqt, asab ketadi. Undan koʻra tayyorini sotib oling, ketsa 200 ming pulingiz ketarkan.

– E, shunaqasi ham boʻlarkanmi? – ajablandim men.

– Boʻlmasa-chi, aniq, kafolatli, kamida tumanda ommalashtirilib ball olarkansiz. Men shunday qildim.

– Mavzugiz nima? – qiziqib soʻradim.

Hamkasbim mavzusini aytib berolmadi. Keyin

bilishimcha, uning metodik ishi tuman miqyosida ommalashtirilibdi, sertifikat ham olibdi. Ana xolos! Xoʻsh, ommalashtirish oʻzi nima uchun kerak? “Uddaburon” oʻqituvchilar metodik tavsiyalarni sotsa-yu, “ijodkor” oʻqituvchilar sotib olib “ishlari” ommalashsa?!

Bundan bir necha yil avval tuman xalq taʼlimi boʻlimi va kasaba uyushmasi tomonidan tanlov eʼlon qilindi. Til yoʻnalishidagi fan oʻqituvchilari uchun “Eng yaxshi dars ishlannasi” tanlovi oʻtkazildi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlsam-da, tanlovda ishtirok etishga qiziqdim. 2-sinf Ona tili darsligida berilgan “Shahar, qishloq va joy nomlarining bosh harfda yozilishi” mavzusida dars ishlannasi tayyorladim. Hakamlar hayʼati 1-oʻringa loyiq koʻrishdi. Dars ishlannasini viloyatdagi taʼlim nashrlaridan biriga yubordim. Hadeganda chop etishmadi. Oradan bir yil oʻtdi. Dars ishlanna boshqa sarlavha ostida chop etildi. Xursand boʻlib oʻqib chiqsam, afsus, maqola muallifi oʻrnida boshqa ism-familiya turibdi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, metodik ishlarim ommalashtirish platformasidan ijobiy oʻtolmasa ham, ommabop boʻlishini, hamkasblarim, shogirdlarim darslarida foydalanishini istardim.

Rahbaroy MELIBOYEVA,

Uchkoʻprik tumanidagi

5-maktabning boshlangʻich sinf

oʻqituvchisi

Elda aziz

Har bir yurtning ziyolilari, olimlari, ulugʻ insonlari boʻladi – ularning hayoti yoshlarga, avlodlarga ibrat, faoliyati esa millat maʼnaviyatining oynasiga aylanadi. Ana shunday yuksak insoniy fazilatlariga va namuna boʻlgulik hayot yoʻliga ega insonlardan biri – psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Karimovadir.

Vasila Karimova 1998-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti(hozir Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti) aspiranturasida oʻqib yurganizmizda bizga darsga kirardi. Oʻsha vaqtlari Oʻzbekistonda ayol fan doktorlari juda kam edi va Vasila Karimova psixologiya fanlari boʻyicha birinchi oʻzbek olimasi hisoblanardi.

Opa bosh koʻtarmay maʼruzani oʻqib beradigan ayrim oʻqituvchilardan farqli ravishda hech qachon qogʻozga qaramas va darslari juda jonli, qiziqarli boʻlardi. Moskva psixologiya ilmiy maktabi vakilasi sifatida bilganimiz uchun Vasila Karimovaning biror darsini oʻtkazib yubormaslikka harakat qilardik.

esladim. Moskva psixologiya maktabining tajribasi shuni koʻrsatadiki, bu maktabni oʻtagan olimlar uning koʻplab qoidalarini butun umri davomida oʻz faoliyatida tatbiq etadilar. Bular – psixikani oʻrganishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish, psixikani tadqiq qilishda obyektiv usullarga eʼtibor qaratish, psixikaning shakllanish, rivojlanishi jarayonida biologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarni taqqoslab tahlil qilish, umumpsixologik, ijtimoiy amaliyot muammolarini oʻrganishda fanlararo yondashuv mezonlariga amal qilishdir. Aytaylik, Moskva davlat universiteti professori Galina Mixaylovna Andreyevaning “Ijtimoiy psixologiya” nomli klassik darsligi bir necha oʻn yil davomida Rossiya va MDH dav-

ga doim havasim keladi. Vasila Karimova respublikamizdagi psixologlar orasida rus va oʻzbek tillarida hech qiynalmay, fikrini mukammal, ravon, chuqur ilmiy tafakkur va mushohada asosida bayon qiladigan kam sonli zullisonayn olim, professorlardan biri boʻlib, bu ham ustozimizning oʻrnak olish zarur boʻlgan fazilatlaridan hisoblanadi.

Vasila Karimova ancha yillar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy markaziga rahbarlik qildi. Poytaxtda faoliyat yuritgan kezlirimda turli masalalar yuzasidan bu maskanga tez-tez borib turardim. Markazda doʻstlarim, koʻp tanishlarim ishlardi. Oʻsha paytlari eʼtiborimni torgan jihat shu boʻldiki, Vasila opaning rahbar sifatida meʼyorga rioya qilish singari juda yaxshi bir odati bor ekan(darvoqe, ayni shu xislat nazarimda turli boʻgʻindagi ayrim rahbarlarda hozirgi kunda yetishmayotganday). Oʻzi ijtimoiy psixolog, olim boʻlgani uchunmikan, boshqaruv uslublarini mukammal tadqiq qilib, bu yoʻnalishda darsliklar yozgani vajhidandir yoki boshqa sabablari

boʻlsa, talabgorning holiga(u kim boʻlishidan qatʼi nazar, hatto shogirdlarining shogirdi yoki opa bilan bir viloyatdan boʻlsa ham) havas qilib boʻlmaydi.

Vasila Karimovaning aytish mumkin boʻlsa, psixologik portretiga chizgilar sifatidagi fikrlarimiz davomida bir narsaga alohida eʼtibor qaratishni istardim. Yana Abdulla Qodiriy ijodiga murojaat qilsak, “Oʻtkan kunlar” romanidagi Oʻzbek oyim obrazidagi bir xususiyatni men Vasila Karimova shaxsida ham uchratganday boʻlaman. Oʻzbek oyim oʻz qadrini biladigan ayol sifatida(zero, inson birinchi navbatda oʻzini qadrlamasa, uni boshqalar hurmat qilmaydi) uncha-muncha chaqiruvlarga “Kavushim koʻchada qolgan emas” deb boravermaydi. Vasila opa yuqorida taʼkidlaganimizdek, kamtarin, eʼtiborli, diplomat inson, biroq zarur payti tegishli odamlarga oʻzining asl bahosini ham bildirishni udalaydi, kerak vaqtda boshqalarni oʻz fikri bilan hisoblashishga ham majbur qila oladi.

Vasila Karimovani haqli ravishda nafaqat olim, balki kuchli voiz, notiq sifatida ham eʼtirof etishadi. Pedagogik faoliyat

Eʼzoz

Olimlikning odamiyligi

Yurtimizda ustozlik maqomida yuksaklikka yetgan insonlar ancha. Ularning har biri sohada oʻziga xos maktab yaratgan, yuzlab shogirdlarni tarbiyalagan, ilm-fan rivojiga katta hissa qoʻshgan. Bu anʼana asrlar osha davom etib kelmoqda. Qahramon Allayev haqida gap ketga, u kishini nafaqat yurtimizda, hatto Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlari boʻyicha elektr tizimlarida asinxron turbogeneratorlardan samarali foydalanish maktabining asoschisi sifatida eʼtirof etishadi. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor Qahramon Allayev Oʻzbekistonda energetika sohasini rivojlantirish, bu borada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, sohadagi muammolar yechimiga qaratilgan ustuvor masalalar boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlariga boshchilik qilmoqda.

Hayot pillapoyalarida

Matematikada “oddiylikdan murakkablikka” degan qoida bor. Aslida hayotimiz shu formula asosida kechadi. Bolalikdan keksalikka, bogʻchadan universitetga, oʻquvchilikdan rahbarlikka, harflarni hijjalab oʻqishdan shoirlik yoʻqʻshiqchilikkacha yuksalib boravermamiz. Ustozning ham hayoti ana shunday pillapoyalardan iborat...

Moskva energetika institutida gidroenergetika va elektromexanika mutaxassislari boʻyicha tashil olgan qahramonimiz mehnat faoliyatini 1969-yili Toshkent politexnika institutida “Elektr tizimlari” kafedrasida katta oʻqituvchilikdan boshlab, kafedra dotsenti, dekan muvini, fakultet dekani, ilmiy ishlar boʻyicha prorektor, universitet rektori va vazir oʻrinbosari lavozimigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi. Bunga bilimi, salohiyati, tashkilotchiligi, odamlarni rahisla bilishi va ortidan ergashtira olishi bilan erishgan.

Bir taʼrifni alohida qayd etishni istardim: “Qayerda Qahramon Allayev boʻlsa, oʻsha yerda yangilik bor”. Bu mubolagʻa emas. Ustoz Toshkent davlat texnika universiteti rektori lavozimida ishlab yurgan kezlari, ayniqsa, yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, yosh olimlarga keng imkoniyatlar yaratish bilan birga fan, taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasidagi integratsiyaning asosiy tashabbuskorlaridan biri boʻlib

di. Yangi kafedralar tashkil etildi, taʼlim yoʻnalishlari ochildi. Malakali kadrlar tayyorlash sifati yuqori darajaga koʻtarildi. Oʻziga xos tizim yaratildi. Energetika vazirligi va universitet oʻrtasida yaqin hamkorlik oʻrnatildi. Natijada oʻnlab yirik loyihalar hayotga tatbiq etildi. Eng asosiysi, professor-oʻqituvchilarning daromadi ikki hissa oshdi. Bu ularni yangi gʻoyalar sari ilhomlantirdi.

Olimlik masʼuliyati

Ustoz ancha yillar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan boʻlsa-da, ilmning jilovini qoʻyvormadi. 200 dan ortiq ilmiy maqola, 20 dan ortiq oʻquv-uslubiy qoʻllanma va 8 ta monografiya muallifining mamlakatimiz ilm-fani rivoji yoʻlidagi xizmatlari munosib taqdirlandi. Taniqli olim 2017-yili Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi. Uning rahbarligida 20 nafar fan nomzodi va 5 nafar fan doktori yetishib chiqdi.

Respublikamizda ilmiy kadrlar tayyorlashda Allayev maktabi yetakchilardan hisoblanadi. Olim muallifligida tayyorlangan darslik, oʻquv qoʻllanma va ilmiy risolalar mamlakatimizda ushbu sohada kadrlar tayyorlashda meʼyoriy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan, ustozning “Zamonaviy energetika va uni rivojlantirish istiqbollari” nomli fundamental



monografiyasi energetika toʻgʻrisidagi ensiklopediya desak mubolagʻa boʻlmaydi. Ushbu monografiya metallurgiya va sanoatning turli sohalari bilan bogʻliq energetik mutaxassislarni uchun dasturlamal boʻlib xizmat qilmoqda. Monografiya ikki qismdan iborat boʻlib, unda dunyo va Oʻzbekiston energetikasining rivojlanish tendensiyalari, ekologiya va qayta tiklanadigan energiya manbalari, vodorod va atom energetikasini joriy etish muammolariga doir mavzularda ilmiy asoslangan taklif va maʼlumotlar berilgan. Shuningdek, soʻnggi oʻn yil ichida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish istiqbollari batafsil yoritilgan, jadvallar va tahliliy hisob-kitoblarni keltirilgan.

Bundan tashqari, Qahramon Allayev – Xalqaro elektrotexnika fanlari akademiyasi akademigi, “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni sohibi. “Beruniy” yoshlar akademiyasi va shu akademiyaning “Texnika yulduzlari”, “Taʼlim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar”, “Energiya va resurs tejash muammolari” jurnallarini tashkil etishda rahbarlik qildi. Hozirgi kunda “Energiya va resurs tejash muammolari” jurnali bosh muharriri. Bu jurnalda Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi oliy taʼlim muassasalari uchun maxsus son ajratilgan yosh olimlarning oʻz ilmiy izlanishlarini yanada keng targʻib qilishlari uchun yaxshi imkoniyat boʻldi.

Odamiylik – fazilat

Shogirdi kamolini koʻrishni istagan ustoz, avvalo, uning iqtidorini anglashi va qoʻllab-quvvatlashi lozim. Olimning bu borada oʻz uslubi bor – qatʼiyatli, qattiqqoʻl va talabchan. Sakson yoshda yoshlar bilan hamqadam boʻlish oson emas. Buning uchun bilim, tajriba va qatʼiyat kerak. Ustozning yoshlarga maʼqul bir xislati bor – huzuriga maslahat soʻrab kelgan kishilarga hech qachon eʼtiborsizlik qilmaydi. Tinglaydi, maslahat beradi, qoʻlidan kelgan yordamini ayamaydi. Bu ham olimlikning odamiyligidir.

Ilm-fan fidoyisining saʼy-harakati bilan yosh olimlarni qoʻllash, ularga keng imkoniyat yaratish maqsadida Toshkent davlat texnika universitetidan tashqari Qarshi, Buxoro va Fargʻonadagi texnika OTMlarida ham energetika sohasi boʻyicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar faoliyati samarali yoʻlga qoʻyildi. Natijada oʻnlab yoshlar tomonidan doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli yoqlanmoqda. Qarshi davlat texnika universiteti faoliyatida ustoz tomonidan yaratilgan tamoyillar muhim oʻrin tutadi. “Muqobil energetika” va “Innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnallari tahrir hayʼati aʼzosi sifatida jurnallar saviyasini oshirish, yosh olimlarning shakllanishida, oliyogʻhimizdagi ilmiy maktablar faoliyatini rivojlantirishda maslahat va yordamini ayamaydi. Universitetda oʻtkaziladigan anjumanlarda doim ishtirok etadi, talabalar va yosh olimlar uchun mahorat darslari, seminarlar tashkil qiladi, oʻz bilim va tajribalari, taʼlimotlarini yoshlar bilan boʻlishadi. Bu muloqotlar professor-oʻqituvchilar uchun ham muhim saboq boʻladi.

Bir soʻz bilan aytganda, olim nafaqat ilm-fanda, balki hayotda ham oʻziga xos ibrat maktabini yaratdi. Haqiqatan ham, ustozning sharaflil umr yoʻli barchamiz uchun namuna. Bu maktab professor-oʻqituvchilar va yosh olimlarni ilm yoʻlida bardavom boʻlishga undaydi. Ustoz yaratgan maktabning bosh gʻoyasi taʼlim sifati, fan taraqqiyoti, yoshlar kamoloti, va eng asosiysi, odamiylik anʼanasidir.

Gʻulom UZOQOV,
QarDTU ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor



Rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiyning “Insonda hamma narsa goʻzal boʻlishi kerak: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikrlari ham” degan fikri bor. Nomzodlik dissertatsiyam ulugʻ oʻzbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy asarlarida aks etgan ijtimoiy-psixologik fikrlar, qarashlarni psixologiya fani nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga bagʻishlangan edi. “Mehrobdan chayon” asarida adibning Raʼno obraziga bergan bir taʼrifi yodimda qolgan. Yaʼni, “Raʼno Fargʻonaning kuylarga qoʻshilib maxtalatugʻan goʻzallaridan edi”. Adib romanlarini bir necha marta oʻqiganman. Lekin, negadir, 1998-yildan keyingi har bir mutolaamda shu taʼrifni oʻqisam, koʻz oldimga fargʻonalik professor, surati ham, siyrati ham goʻzal ayol Vasila Karimova kelardi. Bu gaplarimda zaracha yolgʻon, boʻrttirish yoki mubolagʻa yoʻq.

Vasila Karimova davlat rahbari, Birinchi Prezident Islom Karimov 2000-yil 6-aprel kuni Oqsaroy qarorgohida milliy istiqloq gʻoyasi masalalariga bagʻishlab oʻtkazgan yigʻilishda taʼlim, yoshlarni oʻqitish bilan bogʻliq oʻz fikrlarini bildirdi. Fikrlarki, tosh bosadigan, mantiqli mulohazalar edi. Agar oʻsha payti kim shu yigʻilishga bagʻishlangan koʻrsatuvni koʻrgan boʻlsa, Islom Karimov Vasila Karimovanning takliflari, fikr-mulohazalarini qoʻllab-quvvatlagan, ustozning shaxsiga alohida eʼtibor qaratgandi.

Yuqorida Vasila Karimovanning Moskva psixologiya maktabini xatm qilganligini

latlari institut va universitetlarida asosiy darslik sifatida qoʻllangan boʻlsa, uning shogirdi Vasila Karimovanning “Ijtimoiy psixologiya” darsligi Oʻzbekistonda mustaqillikdan keyin oliy taʼlim muassasalarida hozirgacha oʻqitilayotgan asosiy darsliklardan biri boʻlib qolmoqda.

Ustozning turli yillarda nashr etilgan “Psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Boshqaruv psixologiyasi”, “Oila psixologiyasi” singari oʻnlab darsliklari, oʻquv qoʻllanmalarida shaxs fenomeni, shaxs va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhitga moslashish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, konflikt holatlari, ijtimoiylashuv jarayonlari va boshqaruv psixologiyasining oʻziga xos jihatlari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Olimaning pedagogik faoliyati ham serqirra boʻlib, u Fargʻona davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi talabalari va tinglovchilari uchun koʻp yillar davomida qiziqarli maʼruzalar oʻqidi va hozir ham Oʻzbekiston milliy pedagogika universitetida professor lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda psixologik taʼlim sifati yuksaltirish, jahon psixologiyasi metodologik taraqqiyoti umumiy yoʻnalishiga hamohang muammolarning Oʻzbekiston kontekstida tadqiq etilishida Vasila Karimova rahbarligidagi, u asos solgan ilmiy maktab vakillarining ham xizmati kattadir.

Hozirgi kungacha Vasila Karimova 5 nafar fan doktoriga ilmiy maslahatchilik qilgan boʻlsa, 30 dan ziyod fan nomzodi, psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori ustoz ilmiy rahbarligida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlab, oʻzbek psixologiya fani rivojiga oʻz hissasini qoʻshib kelmoqdalar.

Men dastlab filologiya yoʻnalishini bitirganim, oʻzbek tili va adabiyoti oʻqituvchisi boʻlganim uchun poliglot insonlar-

bormi – Vasila opa qoʻl ostidagi xodimlarga xushmuomalalik, ayni paytda talabchanlik, xullas, zargarona mohirlik bilan munosabatda boʻlardi. Yaʼni, amaliyotchi psixolog sifatida boshqaruvdagi avtoritar, liberal, demokratik uslublarning barcha imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanar, oʻz kitoblarida talqin qilgan partisipativ boshqaruvni amalda – bir vaqtning oʻzida iqtisodiyot universitetidagi “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasida ham joriy qila olgan edi. Kuzatishlarimga koʻra, opaning xodimlari rahbar tomonidan boʻladigan doimiy bosim ostida asabiylik, stress holatiga ham tushishmasdi, shu bilan birga topshiriqlar ijrosiga beparvo qarab, ularni oʻz holiga ham tashlab qoʻyishmasdi. Jamoada qatʼiy tartib, intizom, ayni paytda, oʻzaro hurmat, eʼtibor, empatiya, ijobiy psixologik iqlim muhiti hukm surardi, shunga mos ravishda samara, natija ham yuqori darajada edi. Kafedrada haqiqiy lider borligi har nafasda sezilib turardi.

Vasila Karimova chin, haqiqiy maʼnoda Oʻzbekiston Respublikasidagi psixolog olimlarning dargʻa(“korifey”)laridan biridir. Bir necha yillardan buyon Vasila Karimova bilan birgalikda Oʻzbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi psixologiya fanlari boʻyicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash va ilmiy seminar aʼzosi sifatida faoliyat yuritayapmiz(ustoz koʻp yillar kengash va seminar raisi boʻlib ham ishladi). Tadqiqotchi, dissertantlar ishlarining seminar va kengashdagi muhokamalari jarayonida shunga amin boʻldimki, Vasila Karimovada tadqiqotchilarga nisbatan onalarcha mehribonlik, gʻamxoʻrlik, ularni tushunish bilan birgalikda talabchanlik, prinsipiallik, fanning hurmati uchun kerak boʻlsa, yuzing-koʻzing demaslik kabi xarakter xususiyatlari bor ekan(oʻzinning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyam himoyasida ustozning begʻaraz, xolislanilo juda katta yordam berganlarini ham aytib oʻtmasam boʻlmaydi). Seminar yoki ilmiy kengashda ishi muhokama yoxud himoya qilinayotgan tadqiqotchi Vasila opa tomonidan berilgan savollarga qoniqlari, maʼqul javob bersa, ustoz tomonidan maqtaladi(albatta, meʼyor darajasida), mabodo aksi

Umarali QODIROV,
psixologiya fanlari doktori,
professor

Rahbarlik madaniyati va notiqlik mahorati


Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent, Oʻzbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmasi aʼzosi Mansur Yunusovning “Rahbar etikasi va notiqlik mahorati” darsligi davlat boshqaruvi mutaxassislari boʻyicha taʼlim olayotgan magistratura tinglovchilarining malaka oshirish kurslarida davlat xizmati etikasiga rioya etish koʻnikmasini rivojlantirish, ularning maʼnaviy olamini boyitishga yoʻnaltirilgan.

Darslikni oʻzlashtirish davomida tinglovchilar rahbarning maʼnaviy qiyofasi va boshqaruv madaniyati, rahbar kitobxonligi, muloqot madaniyati, davlatchilik tarixida rahbarlarning boshqaruv salohiyati va tajribalari, sharqona goʻzal fazilatlari, oʻzbek va jahon adabiyotining yuksak namunalari bilan tanishib, badiiy adabiyotdan rahbarlik faoliyatida foydalanish koʻnikmalariga ega boʻladi.

Darslikda rahbar axloq va imijini yuksaltirish, notiqlik mahoratini oshirish, jamoatchilik bilan aloqalar

oʻrnatishda axloq meʼyorlariga rioya etish koʻnikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Uning mazmuni boshqaruv jarayonida tarixiy-madaniy merosdan oqilona foydalanish hamda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda milliy qadriyatlarini asrash kabi masalalarni qamrab olgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2025-



yildagi “Istiqboli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoniga asosan tinglovchilar davlat, jamiyat va xoʻjalik boshqaruvida zamonaviy usullardan foydalanish boʻyicha puxta bilimlarni egallashi, tizimli tahlil va strategik rejalashtirish, murakkab sharoitlarda qarorlar qabul qilish koʻnikmalarini hamda tashabbuskorlik va liderlik sifatlarini shakllantirish orqali rahbar xodimlarga xos umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan.

Ushbu darslik Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi magistraturasi tinglovchilari uchun Akademiyaga kengashi tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejaiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bobur KARIMOV,
sotsiologiya fanlari doktori, professor



Fikr

Talaba uchun shaxsiy yo'riqchi



Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib keldi. Ayniqsa, ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari kengaygani sari **sun'iy intellekt (SI)** texnologiyalarining ahamiyati yanada ortmoqda. Bugun o'qituvchi va talaba munosabatlari faqat auditoriya bilan cheklanmayapti. Endilikda har bir talaba o'ziga xos o'qish uslubini tanlashi, shaxsiy imkoniyatlariga mos o'quv yo'nalishini yaratishi mumkin. Bunga esa **sun'iy intellekt yordam beradi**.

Shaxsiylashtirilgan o'qitish nima?

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – bu har bir talabaga **uning bilim darajasi, o'zlashtirish tezligi, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta'lim berish** demakdir. Ya'ni endi talabalar bir xil darslikni emas, balki har biri **sun'iy intellekt tomonidan moslab berilgan alohida materiallar asosida** o'qiydi. Masalan, matematika fanidan bilimi pastroq talaba uchun asosiy tushuncha, misollar va videodarslar taklif etiladi. Kuchliroq talaba esa murakkabroq mavzular bilan ishlaydi. Buning uchun sun'iy intellekt uning harakatlari, test natijalari va o'zlashtirishini doimiy tahlil qilib boradi.

Bugun ko'plab universitetlar **SI yordamchilari** (chatbotlar)ni joriy qilmoqda. Bunday tizimlar talabaga quyidagilarni taklif etadi:

- o'quv rejalari asosida individual fanlar ro'yxati;
 - qanday qilib yuqori baho olish bo'yicha maslahatlar;
 - o'rganishga mos o'yinli va interaktiv materiallar;
 - real vaqt rejimida savollarga javoblar.
- Bundan tashqari, **SI test tizimlari** talabaga darhol baho beradi, xatolarini ko'rsatadi va mashqlarni avtomatik moslashtiradi. Bu esa an'anaviy baholashdan tezroq, aniqroq va shaffofroqdir.

Ilmiy tadqiqotlar nima deydi?

Xalqaro tahlillarga ko'ra, shaxsiylashtirilgan ta'lim olish imkoniga ega bo'lgan talabalar:

- ✓ o'rtacha 20–25 foiz tezroq o'zlashtiradi;
- ✓ mustaqil o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi;

- ✓ baholari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Sun'iy intellekt, ayniqsa, **yirik auditoriyalarda talabaning individual yondashuvini to'ldirish** uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Yurtimizda raqamli ta'lim platformalari (masalan, hemis, edu.uz, google classroom) joriy etilgan. Endilikda bu tizimlarga **sun'iy intellekt vositalarini integratsiya qilish** ustida ishlash lozim. Bunda quyidagi chora-tadbirlar muhim sanaladi:

- o'qituvchilarning sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmasini oshirish;
- mahalliy SI tizimlarini yaratish va ularni o'zbek tiliga moslashtirish;
- har bir talabaning o'quv faoliyatini kuzatuvchi avtomatlashtirilgan vositalarni yo'lga qo'yish.

Xulosa o'nida shuni aytish joizki, sun'iy intellekt nafaqat texnologiya, balki ta'limda ham **shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshiruvchi vositadir**. U talabaning bilim olishini qulaylashtiradi. Agar ushbu texnologiyalarni to'g'ri yo'naltirsak, talaba uchun sun'iy intellekt (SI) haqiqiy yo'riqchiga aylinishi mumkin.

Ilhom G'ANIYEV,
CHDPU katta o'qituvchisi

Fan va SI

Sun'iy intellekt – o'qituvchining yordamchisi



Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt(SI) hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda. U nafaqat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, transport yoki moliya sohalarida, balki ta'lim tizimida ham tub burilishlar qilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'rganishda SI texnologiyalarining qo'llanilishi yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

SI yordamida til o'rganish usullari

1. Adaptiv o'quv tizimlari. SI asosida ishlovchi o'quv platformalari(Duolingo, Memrise, Mondly) foydalanuvchining darajasi, xatolari va o'zlashtirish tezligiga qarab mashqlarni avtomatik sozlaydi. Har bir o'quvchiga individual ta'lim yo'nalishi taqdim etiladi.

2. Tabiiy tilni qayta ishlash. SI inson tilini tahlil qilib, kontekst, so'z birikmalari, sintaksis va semantika asosida mashqlar tayyorlaydi. Masalan, ChatGPT foydalanuvchi matnini grammatik jihatdan tahlil qilib, yaxshilash takliflarini bildiradi.

3. Nutqni avtomatik aniqlash va

baholash. Speak, Elsa Speak, Google Translate kabi ilovalar foydalanuvchining talaffuzini tahlil qilib, to'g'rilash bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu, ayniqsa, og'zaki nutqni rivojlantirish uchun muhim.

4. Real vaqtli suhbatdoshlar. Sun'iy suhbatdoshlar yordamida foydalanuvchilar ingliz, nemis, ispan yoki boshqa tillarda jonli suhbat olib borishi mumkin. Bu usul tilni faol mashq qilishga imkon yaratadi.

5. Gamifikatsiya va rag'batlantirish. Ball to'plash, reytingda ko'tarilish, vazifalarni bajarish orqali foydalanuvchining motivatsiyasi oshiriladi. SI tizimi bu jarayonni boshqarib, o'rganuvchining qiziqish darajasini doimiy ushlab turadi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan ko'plab

ilmiy-tadqiqotlar SI yordamida til o'rganish samaradorligini isbotladi. Masalan:

- **Massachusetts Institute of Technology(MIT):** 2022-yili o'tkazilgan tajribada SI asosida o'qigan talabalar an'anaviy guruhga nisbatan 42 foiz tezroq so'z boyligini oshirgan.

- **Oksford universiteti:** 2023-yili SI asosida suhbatlashgan talabalar grammatikani amalda qo'llashda yuqori natijalarga erishgan.

- **O'zbekiston Milliy universiteti:** 2024-yili ChatGPT asosida dars olib borgan ingliz tili o'qituvchilari bilan ishlagan guruhda darsga qatnashish faolligi 30 foiz oshgani aniqlangan.

Afzalliklari:

- har bir o'quvchiga individual yondashuv;
- mashg'ulotlar istalgan vaqtda, istalgan joyda o'tkazilishi;
- xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish;
- muloqot ko'nikmalarini real vaqtda shakllantirish;
- motivatsiya va natijalarni o'lchashning aniqligi.

Kamchiliklari:

- SI insoniy hissiyotlarni to'liq anglay olmaydi;
- ba'zan algoritmlar noto'g'ri takliflar beradi;
- texnologik vositalarga bog'liqlik kuchayadi;
- internet yoki qurilmaga doimiy ehtiyoj mavjud.

O'qituvchi va SI hamkorligi

Ko'plab mutaxassislar SI texnologiyalarini o'qituvchining o'rnini oluvchi emas, balki uning yordamchisi sifatida ko'rmoqda. O'qituvchi:

- madaniy kontekstni tushuntiradi;

- o'quvchining hissiy holatini baho laydi;

- Tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi.

SI esa texnik vazifalarni(tahlil, xatolarni aniqlash, mashqlarni moslash) o'z zimmasiga oladi. Bu integratsiya pedagogik jarayonni kuchaytiradi.

Kelajak istiqbollari

Kelgusida SI bilan bog'liq til o'rganish texnologiyalari yanada rivojlanadi:

- **VR/AR yordamida immersiv muhitlar:** talabalar virtual kafe, aeroport yoki dars xonalarida mashq qiladi;

- **Ko'p tillilik:** bir vaqtning o'zida bir necha tilni o'rganish imkoniyati;

- **Hissiy intellektga ega SI:** o'quvchining kayfiyati va charchoq darajasiga qarab darslarni moslashtiradi;

- **Avtomatik baholovchi tizimlar:** insholar, og'zaki javoblar va nutqni avtomatik baholaydi.

Sun'iy intellekt yordamida chet tilini o'rgatish va o'rganish nafaqat texnologik innovatsiya, balki yangi pedagogik tafakkur namunasidir. U o'quvchining shaxsiy imkoniyatlariga mos, samarali, qulay va interaktiv o'quv muhitini yaratadi. Ilmiy tadqiqotlar SI asosidagi ta'lim samaradorligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, insoniy omil – o'qituvchining roli ham muhimligini unutmaslik zarur. Kelajakda SI va inson o'rtasidagi uyg'unlik til o'rgatishda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda.

Dilobar NURIDDINOVA,
Toshkent Xalqaro universiteti
"Xorijiy tillar" kafedrasida
katta o'qituvchisi
Kamola USMONOVA,
Toshkent Xalqaro universiteti
"Xorijiy tillar" kafedrasida
stajyor o'qituvchisi





Elda aziz



Ijodkor o'qituvchi va jurnalist Omon Abdullaning "O'tayotgan kun", "Sog'inch azobi", "Yonayotgan maktub", "Najot farishtasi", "So'zsiz sevgi", "Haybat hayqirig'i", "Armon alangasi", "Sukunat sohili", "Sabr saltanati", "Umr yo'llarida" singari she'riy kitoblari muxlislarining ko'ngil mulkiga aylangan. Uning turli mavzudagi maqolalarida davr yangiliklari o'z ifodasini topgan. Ocherklarida esa oddiy kosib hayotidan tortib, fan doktori darajasigacha bo'lgan turli kasb egalarning ibratli faoliyati atroflicha yoritib berilayotganligi tahsinga loyiq.

IJODGA TALPINGAN YURAK

Omon Abdulla 70 yoshni qarshilayotgan bo'lishiga qaramay hamon ko'p va xo'p yozmoqda. Fidoyi jurnalistning "Oldingdan oqqan suv" sarlavhali ocherki "Shofirkon ovozi" tuman gazetasining keyingi 10 ta sonida davomli chop etilganligi fikrimizning yorqin dalili.

BOLALIK ISHTIYOQI

Maktab o'quvchisi Omon 1971-yili matbuot maydoniga shiddat bilan kirib keldi. O'shanda "Mushtum" jurnalining "Och biqiniga" rukni ostida "Sho'razor" maqolasi chop etilib, qishloqda shov-shuv bo'lib ketdi. Maqolada Savrakdagi yozgi klubning qarovsiz qolib, atrofi yantoqzor, binosi aftodahol ahvolda ekanligi, taniqli san'atkorlar Halima Nosirova, Faxriddin Umarov, Tavakkal Qodirov kontsert bergan klub e'tiborsizlik tufayli achinarli holdaligi tanqid qilingan edi.

Shundan keyin tuman va kolxoz rahbarlari hushyor tortib, maqola muallifini izlashga tushdi. Ko'p o'tmay maqolani 7-sinf o'quvchisi Omondulla Abdullayev yozganligi aniqlanib, u siquvga olindi. Voqeadan xabar topgan jurnalist Abdulla Rahmonov va o'qituvchi Hamida Hamidova maqola haqqoniy yozilganligini ta'kidlab, yosh muxbir Omondullaning yonini olishdi. Biroz vaqt o'tib, tuman gazetasi jamoasi talantli Omondullani gazeta huzuridagi "Mingchinor" adabiy to'garagiga qabul qilishadi.

Omondulla to'garak mashg'ulotlarida jurnalistika janrlari va badiiy san'at sirlarini zo'r qiziqish bilan o'rganadi. 1974-yili o'rta maktabni tugatib, tuman gazetasi yo'llanmasi bilan ToshDUning jurnalistika fakultetiga hujjat topshiradi. Lekin kirish imtihonida omadi kelmaydi. Adabiyotga ishtiyoqi balandligi sabab 1975-yili Buxoro davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdi.

Omon Abdullaning talabalik davri adabiyot olamiga kirib kelishida muhim poydevor vazifasini o'tadi. Shuningdek, shoirlikka qiziqishida oilaviy muhitning o'rni ham beqiyos bo'ldi.

ONA DUOSI

1978-yilning qishi. Institutning oxirgi kursida o'qiyotgan Omon sandalda onasi bilan gurunglashib o'tiribdi. Beozor qalbli onasining ochiq chehrasiga boqib, nimadir yodiga tushdi. Doim yonida hoziru nozir daftar-qalamini olib, yoza boshladi. O'g'lining bu ajoyib odatiga o'rganib qolgan onasi mehrli ko'zini unga tikib, qarab qoldi. Nihoyat Omon doimgidek yozganidan ko'ngli to'lib, yuzi yorishdi va volidayi muhtaramasiga kulib qaradi.

Ha, Omon ko'nglida jo'sh urgan his-hayajonini qog'ozga tushirib, yengil tortgan edi. Shu lahzada undanda baxtiyor kishining o'zi yo'q. Chunki she'riy satrlar o'z-o'zidan quyilib keldi.

Shoirarga ma'lum, she'r osonlikcha dunyoga kelmaydi. Ijodkor soatlab yozuv stoliga o'tirib yozolmaydi ba'zan. Negaki, borliqni to'la his qilmay turib, she'r yozib bo'lmaydi. Qachonki, ko'nglingizda kuchli his-hayajon tug'yon urib, voqelik ko'z oldingizda yaqqol namoyon bo'lgandagina erkin-oson yoza ola-

siz. Zero, shu voqelik manzarasi dilingizda mavjlanib, tilingizda so'zlar silsilasida yuzaga chiqsagina haqiqiy she'r dunyoga keladi. She'r shunday, u joy tanlamay tug'iladi.

Omonning she'rlari hamisha shunday yuzaga keldi. Sandal ustida bitgan she'riy satrlarini onasiga zo'r quvonch bilan o'qib berdi:

*Tun quyosh boshini uzib tashladi,
Huv, ana ufqda qalqib qoldi qon.
Ko'kda sayyoralar kula boshladi,
Quyosh esa pastda uzar edi jon...*

Bo'lajak shoirning onasi Xosiyat buvining ko'zlari-da quvonch va sevinch yoshlari chaqnadi. Qo'llarini duoga ochib, Ollohdan o'g'liga uzoq umr, ijodiy barkamollik tiladi.

IJODKOR O'QITUVCHI

Omon Abdullayev o'qituvchilik faoliyati mobaynida 1-maktab o'quvchilariga ona tilimizning so'zga boy jozibasini, o'zbek adabiyotining betakror kuch-quvvatini har bir darsida namoyish etdi. Darslarini ko'rgazmali qurollar, hayotiy hikoyatlar va ta'lim ilg'orlari tajribasi asosida o'tar edi. Shuning uchun ilg'or o'qituvchilar safida bo'ldi. Ish tajribalari tuman va viloyat miqyosida ommalashtirildi.

Mohir o'qituvchi O. Abdullayev 1994-yili Shahrisabzda, 1997-yili esa Parkentda o'tkazilgan respublika ijodkor o'qituvchilari anjumanida faol qatnashdi. Ta'lim va tarbiya sohasidagi samarali mehnati tufayli "Ijodkor o'qituvchi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

FIDOYI JURNALIST

Omon Abdullayev o'qituvchilik faoliyati mobaynida matbuotda ham faol qatnashdi. Jamoatchi muxbir sifatida "Shofirkon haqiqati" tuman gazetasining muharriri A.Hasanov e'tiborini qozondi. 1982-yili gazetasining adabiyot va san'at bo'limiga ishga qabul qilindi.

Gazeta muxbiri O.Abdulla odamlar orasida bo'lib, dolzarb mavzularda maqolalar yozdi. Publitsistika janrlari: xabar, axborot, intervyu, reportaj, feleton, lavha, va ayniqsa, ocherkda mahorat ko'rsatdi.

Jurnalist Omon Abdulla jo'shqin faoliyati tufayli 1990-yili O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga a'zolikka qabul qilindi. Darvoqe, shu o'rinda o'rinli savol: "10 dan ziyod she'riy kitoblari muallifi Omon Abdulla nega O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi emas!?"

"G'AYRATIYNING SHOFIRKONLIK SHOGIRDI"

Shoir va jurnalist Dilmurod Jabbor (oxirati obod bo'lsin) 90-yillarda "Qishloq haqiqati" respublika gazetasining bir sonida "G'ayratiyning shofirkonlik shogirdi" nomli maqolasida Omon Abdullaning tuman o'quvchilar saroyi huzuridagi "Na'matak" adabiy to'garagi faoliyati to'g'risida hikoya qilgan edi.

Darhaqiqat, O.Abdulla 1989-yili shu to'garakni

tashkil etib, tuman maktablaridan kelgan o'quvchilarga badiiy ijod sir-asrorini o'rgata boshladi. Yosh iste'dodlarning dastlabki ijod namunalarini o'zi tashkil etgan ko'p nusxali "Na'matak" gazetasida yoritib bordi.

Mana, qo'limda ushbu gazetasining 1992-yildagi 6-soni. Undagi bosh maqola "Ko'ngil navolari"dan parcha:

"Jumhuriyatda o'tkazilgan "O'quvchining birinchi kitobchasi" konkursida iqtidorli yosh qalamkash Shahobiddin O'rinovning iste'dodiga yuksak baho berildi. Uning "Yurak mavjlari" she'riy to'plami birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Ikki nafar umidli shoirlar Tursunoy Yo'ldosheva va Nasiba Bozorovaning she'riy to'plamlari ham jumhuriyat ko'rik-tanlovida yuqori baholandi".

"Na'matak" ko'p nusxali gazetasining shu sonida Shodmon Sulaymonov, Shahobiddin O'rinov, Tursunoy Yo'ldosheva, Zulxumor Saidova, Oydin Shokirova, Muhabbat Samadova, G'ayrat Sultonov, Zulayho Rahmonova, Nasiba Bozorova singari 30 nafar yosh qalamkashlarning she'r va hikoyalari chop etilgan.

Ha, taniqli shoir G'ayratiy o'z davrida tashkil etgan to'garakdan Erkin Vohidov va boshqa ko'plab zabardast shoirlar yetishib chiqqan edi. Shofirkonlik shoir O.Abdullaning tuman "Barkamol avlod" maktabi huzuridagi "Na'matak" to'garagi ham ajoyib iste'dodlarni kashf etdi. Navbahor Rahmonova va Dilafro'z Istamova Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, Marhabo Umidova "Kelajak ovozi" respublika tanlovi laureati bo'ldilar.

HOZIRJAVOB SHOIR

Shoir O.Abdulla zamon bilan hamnafas ijod qiladi. U faol ijodkor sifatida mamlakatimizning muhim sanalariga mas'uliyat bilan qaraydi. Yer yuzidagi borliqni teran his qiladi. Insonlar hayotiga oqilona munosabat bildirib, jo'shqin ehtiros bilan yozadi. Uning "Qorga iltijo" she'ri el-yurt dardi bilan yashayotgan kuyunchak shoir ekanligini anglatadi:

*Ko'z tikaman bulutli ko'kka,
Tashrifingni kutib intizor.
Ko'rinmaysan, qaydasan, yo'qday
Shofirkonni chetlab o'tma, qor,
Buxoro ham qadamingga zor.*

Qor bolalarga quvonch, dala-dashtga to'kin-sochinlik ulashadi. Uning oqligi baxt nishonasi. She'rda qorning pag'a-pag'a yog'ib, hammayoqni oqqa belashiga iltijo qilinadi...

Omon Abdulla she'riyatida Ona timsoli alohida mehr bilan ifoda etiladi. Ona g'oyat go'zal tasvirlanadi, hayotligida ardoqlash lozimligi ta'kidlanadi:

*Borida ardoqla, so'ng ko'ngling to'lmas,
Qadri yomon o'tar, lablaring kulmas.
O'nta kelin, qizing onangdek bo'lmas,
Sizni eslab, ona yig'lagim kelar....*

QO'SHIQCHI SHOIR

Darhaqiqat, Omon Abdulla qo'shiqchi shoir. Rahmatjon Qurbonov, Zarifboy Azizov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, Soyib Niyozov singari mashhur san'atkorlar repertuaridan Omon Abdulla she'rlari bilan aytilgan qo'shiqlar o'rin egallagan. Shuningdek, Buxoro viloyat filarmoniyasi xonandalari Nuriddin Aberayev, Usmon Inoyatov va boshqa mahalliy san'atkorlar ham shoir she'rlariga kuy bastalab, xalqimiz oldida mahorat bilan kuylamoqdalar.

Muxtasar qilib aytganda, Omon Abdullaning qo'lga kiritgan eng katta mukofoti – odamlarning unga bo'lgan samimiy e'tiboridir. Ha, Omon Abdulla odamlar orasida bo'lib, obro'-e'tibor topdi. Qadrdon Shofirkon adabiy muhitida o'ziga xos mahorat maktabi yaratdi. Undan saboq olgan shogirdlari Omon akaga hamisha hurmat-ehtirom ko'rsatib, ta'zim qiladilar. Ustozga uzoq umr, sihat-salomatlik tilaymiz.

Hakim KAMOLOV,
faxriy o'qituvchi

Shofirkon tumani



Siyosiy sharh

GIBRID KARTOSHKA

Avvalo “gibrid” degan soʻzning maʼnosi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, yunon tilidan oʻgirganda “chatishma” demakdir. Masalan, oʻsimliklar chatishtirilib, birining xususiyati ikkinchisiga oʻtkazilishi mumkin. Shu tariqa pomidor uzoq saqlanadigan suvsiz turi bilan chatishtirilib, olis yoʻllarda tashilganda chirimaydigan yangi navi yaratildi. Yoki bozorlarda sotilayotgan ayrim kartoshkalar qurt tushmasligi uchun gibridlanadi. Afssuski, baʼzan gibridlash teskari natija berib, mahsulot sifatini buzishi ham mumkin. Aytaylik, gibrid kartoshkalar bemazalashib, shoʻrvaga solsangiz atalaga aylanib qoladi. Yana shuni taassuf bilan qayd qilmoq kerakki, gibridlashtirish bizning beqaror taʼlim tizimimizni ham chetlab oʻtmadi. Darslar, oʻquv mashgʻulotlari, darsliklar gibridlanmoqda. Ayniqsa, “Ona tili” darsliklari chuqur gibridlashtirildi. Buni mualliflar boshqa fanlar bilan aloqani kuchaytirish, deya xaspoʻshlayotgan boʻlsalar-da, meʼyordan ancha-muncha chiqib ketganlari yaqqol koʻrinib turibdi.

“Ijtimoiy tarmoqlar”, “Turon yoʻlbars”, “C vitamin”, “Kelajak kasblari”, “Maqsadli xarajatlar”, “Zamonamiz qahramonlari”, “Qutb yulduzi”, “Kurash – milliy sport turi”, “Veterinar”, “Bobomning pensiyasi”... Bular bari umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfidagi ona tili darslarida oʻrganilishi lozim boʻlgan mavzular roʻyxatidir. Avvalambor “Ona tili” darsligini bu tarzda mundariyalashning oʻzi gʻayriilmiy hodisa, shu bilan birga mavzularni ochib berishda kamchilik va nuqsonlar ham koʻrinib qoladi. Masalan, “Bobomning pensiyasi” mavzusi oʻrganilganda pensiya jamgʻarmasi mehnatkashlar ish haqidan ushlab qolingani daromad soliqlari hisobidan shakllantirilishi aytiladi. Har oy maoshlardan ushlab qolinadigan olti foizlik pensiya jamgʻarmasi soligʻi haqida hech narsa deyilmagan. Ana shunday chala-chulpa maʼlumotlar asosida yaratilgan yangi gibrid darsliklar xuddi gibrid kartoshka singari taʼmsiz va atala boʻlib qolgan.

Keyingi paytlarda gibridlashtirish tobora ommaviy tus olmoqda. Buni katta siyosat misolida ham koʻrish mumkin. Aytaylik, xitoyliklar kommunizm bilan kapitalizmni gibridlashtirib, ulkan yutuqlarga erishdilar. Kommunistik firqa boshchiligidagi davlat kapitalizmi yaratildi. Qisqa davr ichida u yerda milliarder va millionerlardan iborat burjuaziya qatlami vujudga keldi. Shu bilan birga million-million yoʻqsil proletarlar sinfi ham yoʻqolib ketganicha yoʻq. Bir soʻz bilan aytganda, XXRdagi siyosiy tuzumni bemalol gibrid imperializm deya atash mumkin. Nega desangiz, Xitoyda kommunistik partiya rahbarligida, kapitalistik usul bilan xalqaro iqtisodiy imperiya barpo etilmoqda. Bu imperiya hozir shu darajada kuchaydiki, iqtisodiyot bobida azaliy imperialistik davlatlarni ham ancha-muncha ortda qoldirib ketdi. Iqtisodiy muvaffaqiyatlar fonida Xitoy harbiy jihatdan ham kuchaymoqda. Xabarlariga qaraganda u yerda hali koʻz koʻrib quloq eshitmagan yangi gibrid qurol turlari yaratilayotgan emish. Stratosferaga chiqib dronlar toʻdasini hujumga tashlaydigan harbiy uchoqlar, kosmosdagi uchuvchi obyektlarni yerdan turib yoʻq qiluvchi lazer qurilmalari, dronlarga qarshi yangicha radio-elektron vositalar, dushman mamlakatlarda ogʻir yuqumli kasalliklar tarqatuvchi biologik qurollar shular jumlasidandir. Aytishlaricha, kovid kasalligini paydo qiladigan virus ham aynan ana shu biologik qurollar yaratadigan laboratoriyadan chiqib tarqalib ketgan. Siyosatdagi gibridlashtirish jarayonini boshqa mamlakatlarda ham kuzatish mumkin. AQSHdagi demokratik tizimlar maʼmuriy buyruqbozlik usuli bilan chatishtirilmoqda, Yevropaning insonparvarlik qadriyatlarini muhojirlarning huquqlarini kamsitish bilan qovushtirilmoqda, Rossiyada esa yuksak axloqiylik, adolatparvarlik daʼvolari qotillik hamda bosqinchilik illatlari bilan baqamti olgʻa surilmoqda. Yashash uchun kurashning gibrid usullari kundalik hayotimizga ham keng yoyilmoqda. Bugungi kunda chayqovchilikni savdogarlikdan, tovlamachilikni tadbirkorlikdan, yulgʻichlikni uddaburonlikdan, porani hadyadan farqlab ajratish qiyin boʻlib qoldi. “Qaysi yoʻl bilan pul topsa qandini ursin!”, degan aqida urfga aylandi. Eng yomoni – halol bilan harom chatishib ketdi.

GIBRID SIYOSAT

Gibridlashtirish siyosatining eng yomon koʻrinishi jahon iqtisodiyotida roʻy bermiqda. Undagi yirik oʻyinchi-lar shunaqangi ajabtovur usullarni oʻylab topishmoqdaki, Adam Smit ustozligida Nobel mukofotini olgan taniqli iqtisodchi olimlar ham hayratdan yoqa ushlab qolmoqda. Aytaylik, har bir oʻzini hurmat qiluvchi davlat ichki ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish uchun import qilinayotgan tovarlardan maʼlum miqdorda boj undiradi. Xitoylik ishlab chiqaruvchilar bu daxmaza tartibdan qutulish uchun mahsulotlarini turli aylanma yoʻllar bilan eksportga chiqarish yoʻllarini oʻylab topdilar. Aslida, bu usul hali sovet davridayoq urgutliklar tomonidan ixtiro qilingan edi. Urgutlik savdogarlar Rossiya, Ukraina va Belorussiyadagi shaharlarga quruq mevalarni pochta orqali joʻnatardilar. Masalan, bir tonna mayiz 100 ta 10 kilolik joʻnatmaga joylanib sobiq ittifoqning istalgan shahridagi biror tanish kishi nomiga joʻnatilardi. Bir tomondan yoʻl xarajati tejalsa, ikkinchi tomondan yoʻldagi talonchi va

GIBRID
DUNYO
MANZARALARI

oʻgʻrilardan kafolatlangan himoya ostida yuk manzilga yetib borardi. Buning qancha pul boʻlishini oʻsha davr narxlari bilan hisoblasak, moʻmaygina daromad keltirardi. Holbuki, baʼzi uddaburon kishilar bir mavsumda 5–10 tonna yukni shu usul bilan joʻnatishga erishardilar. Albatta, bundan pochta xizmatchilari va boshqa tegishli tomonlar ham quruq qolmasdilar. Keyinchalik, Andropov davrida OBXSS(iqtisodiy politsiya)chilar bundan xabardor boʻlib qolib, pochta idoralari bir shaxs nomiga ikkitadan ortiq joʻnatma qabul qilmaydigan boʻldi. Xitoylik ishlab chiqaruvchilar ham xuddi ana shu yoʻl bilan Amerikadagi korxonalarni sindirib ulgurdilar. Shu usul bilan ular AQSHdagi kiyim-kechak, trikotaj, tekstil va elektronika bozorini tamoman egallab, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bankrot jarligi yoqasiga keltirdilar. Ish shungacha borib yetmoqdaki, hay-hay demasa, xitoylik ishbiarmon oʻrtoqlar Amerikaning avtomobil bozoriga ham xuruj boshladilar. Albatta, avtomobilni posilka qilib boʻlmaydi. Bunda xitoyliklar boshqacha yoʻl tutishdi: detallarni Xitoyda tayyorlab, Meksikada yigʻiladi va “Made in Mexico” tamgʻasi urilib, AQSHga oʻtkazib sotiladi. Bu xildagi harakatlar, albatta, AQSH maʼmurlarini chuqur tashvishga solmoqda. Ularda bir vaqtlar Xitoyga eshiklarni keng ochgan Richard Nikson va Genri Kissenjarning iqtisodiy va siyosiy islohotlariga nisbatan shubhalar paydo boʻlmoqda. Bundoq olib qaraganda Donald Tramp ham birdaniga osmondan tushib qolmadi. U oʻzida koʻpchilik amerikaliklarning orzu-istaklarini yorqin aks ettirmoqda. Tramp joriy qilgan Xitoy tovarlariga nisbatan oʻrnatilgan 25 foizlik boj va joʻnatma iqtisodiyotiga barham berilgani xitoylik ishlab chiqaruvchilarni sarosimaga solib qoʻydi. Toʻgʻri, bundan amerikaliklarning oʻzi ham katta zarar koʻrmoqda. Kechagina 5–10 dollar turadigan koʻylakning narxi bugun birdan 15–20 dollarga koʻtarildi. Xitoyning arzon mahsulotlariga oʻrganib qolgan aholining qashshoq qatlamlariga bu yoqmasligi mutlaqo tabiiy. Ana endi shu oʻrinda Rossiya va Xitoyning gibrid tashviqot vositalari ishga tushadi va gʻarb aholisini yana arzon rus gazi hamda arzon xitoy telefoni uchun koʻchalarda namoyish uyushtirishga undaydi. Shu tariqa asta-sekin AQSH va Yevropadagi barqaror vaziyatni izdan chiqarishga harakat qilinadi. Gʻarbning ojizligidan foydalangan Sharqdagi avtoritar tuzumlar demokratik dunyoni tagidan yemirib tashlashga urinmoqdalar. Bu borada ular turli shubhali vositalardan qoʻrqmay foydalanmoqdalar. Shu maʼnoda, Ukrainadagi urush shunchaki, Moskva va Kiyev orasidagi mojaro boʻlmay, ikki dunyo, ikki tamaddun orasidagi hayot-mamot jangidir. Amerika prezidenti buni keyingi kunlarda yaqqol payqab qoldi. Mugʻombir Putin uni shu paytgacha aldab-suldab, Ukrainaning kattagina qismini egallab oldi. Ammo uning maqsadi faqat Ukraina bilan chegaralanib qolmaydi.

GIBRID DIPLOMATIYA

XXI asrning birinchi choragi oxirlab borayotgan shu kunlarda oʻtgan asrning “sovuq urush” yillarida oʻta dolzarb boʻlgan dunyo tinchligi masalasi yana jahonshumul kun tartibiga chiqdi. Dunyoning bir emas, bir necha mintaqalarida katta urush chiqish xavfi paydo boʻldi. Ayniqsa, atom quroliga ega boʻlgan mamlakatlar: Hindiston va Pokiston oʻrtasida paydo boʻlgan mojaro, Isroil va Eron ziddiyatlari, Kambodja hamda Laos mamlakatlari orasidagi qurolli toʻqnashuvlar dunyo afkor ommasini ancha bezovtalantirib qoʻydi. Ushbu mojaro-lar orasida bizga eng yaqini – Rossiya va Ukrainaning murosaga kelolmay, jangni toʻxtatmayotgani nafaqat mintaqamiz, balki umumjahon tinchligiga ham katta xatar paydo qilmoqda. Ushbu kelishmovchiliklarga kimdir Moskvani ayblasa, yana kimdir Kiyevdagilarni qoralaydi. Bu oʻrinda qarsak ikki qoʻldan chiqishini zinhor unutmaslik kerak. Tinchlik shunday bir neʼmatki, uni koʻz qorachigʻiday avaylab asrash kerak. Xalq orasida: “Itining feʼlini egasi biladi”, degan dono naql bor. Shu maʼnoda, itfeʼl odamning jigʻiga tekkan kishi hech qachon xursand boʻlmagan.

“Der Spiegel” jurnalining yozishicha, yaqinda Germaniya Tashqi ishlar vazirligi 1994-yilning birinchi yarmiga oid maxfiy hujjatlarni ochiqdigan. Ushbu hujjatlardan birida oʻsha paytda Germaniyaning Sankt-Peterburgdagi bosh konsuli lavozimida ishlagan Eberhard fon Puttkamerning Vladimir Putin haqidagi yozuvlari keltirilgan.

“Qirim, Sharqiy Ukraina va Shimoliy Qozogʻiston Rossiya uchun hech qachon xorijiy davlat hududi boʻlmagan, balki doimo Rossiyaning bir qismi boʻlgan”, deya Putinning soʻzlaridan iqtibos keltirgan Puttkammer. Shu oʻrinda qayd etib oʻtish kerakki, ushbu gaplar hali Ukraina oʻzining betaraf maqomdagi mamlakat ekanligini bildirib, u yerda “maydon toʻntarishi” roʻy bermagan davrda aytilgan edi. U payti bu haqda faqat Jirinovskiygina gapira olar va uning fikrlari ahmoqona bir safsata sifatida qabul qilinardi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Ukrainaning esini kiritib qoʻyish fikri Putinda hali ustoz Sobchakning xizmatini qilib yurgan davrlardayoq paydo boʻlgan. Biz avvalgi maqolamizda taniqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiyning Ukraina masalasida aytib ketgan mulohazalari bilan tanishgan edik. Ushbu maqolada murosa ustasi deya tanilgan amaliy siyosatchi AQSHning Richard Nikson prezidentligi davridagi Davlat kotibi Genri Kissinjerning Ukraina masalasida bildirgan fikrlari bilan tanishsak foydadan xoli boʻlmaydi. Kissinjer avvalgi maqolalarida bu borada ehtiyotkorona siyosat yurgʻizish tarafdori boʻlib, Ukrainaning Finlandiyaga oʻxshash neytral mamlakat boʻlishi tarafdori edi. Ammo keyinchalik Rossiyaning tajovuzkorona siyosat yurgizayotgani oqibatida u oʻz fikrini keskin oʻzgartirdi. Avvalo Ukraina oʻzini-oʻzi himoya qila oladigan kuchli mamlakat boʻlishi, agar buni eplay olmasa, Yevropa hamjamiyatiga, hatto NATO harbiy tashkilotiga aʼzo boʻlishi lozimligini uqtirdi. Chunki u ham xuddi Bjezinskiyga oʻxshab, Ukrainaning Gʻarb dunyosi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi. Shu maʼnoda, bu jafokash mamlakat ikki dunyo: rus va gʻarb dunyosi oʻrtasida uloq boʻlayotgani mutlaqo tabiiy holat boʻlishini oldindan koʻra bildi. Hozir vaziyat shundayki, Ukraina gʻarb tamaddunining chin maʼnodagi qopqoniga aylandi. Agar Ukraina magʻlub boʻlsa, Yevropa parokandalikka yuz tutib, demokratik dunyo xatar ostida qolishi mumkinligidan ogohlantirdi. AQSH va Yevropa jipsligining zaiflashuvi bugungi kunda Putin orzularining ushalishi uchun qulay imkoniyat paydo qilyapti. Bundan unumli foydalanayotgan sobiq chekist soddadil Trampni yarim yildan buyon chalgʻitib, Ukrainaning sillasini qurituvchi mashʼum urushni davom ettirmoqda. Gʻolib kelish uchun askarni ham, texnikani ham, mablagʻni ham ayamay sarflamoqda. Chunki bu oldingi maqolalarimizda yozganimizdek, har ikki tomon uchun hayot va mamot masalasi boʻlib tuyulmoqda. Bu borada Putinning Tramp bilan olib borayotgan siyosiy oʻyini Ukrainani holdan toydirish uchun vaqtini choʻzishdan boshqa narsa emas.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi



Romanimni qanday chiqardim, bilasizmi?



Bir roman yozdim. Unga hazilakam vaqtim ketmadi: ikki oy – aytishga oson. Tun-u kun o‘tirib yozdim. Romanim zo‘r chiqdi – shunday deyishga uyalmasam ham bo‘ladi. Qo‘lyozmani bir gazeta tahririyatiga ko‘tarib bordim.

– Original asarlarni chiqarolmaymiz.
– Hech bo‘lmasa, qo‘lingizga olib qarang!
– Bunga hojat yo‘q, odamlar original asarlarni yoqtirmaydi.

Shundan so‘ng men qo‘lyozmamni nashriyotga eltdim. “Sizga bir narsa...” deya gap ochib ulgurmasimdan, menga keskin javob berishdi: “Biz faqat boshqa tillardan o‘g‘irilgan romanlarni chop etamiz”.

So‘ng boshqasiga bordim. U ham olmadi:

– Tarjimadan bo‘lsa, bering, o‘zimiznikilar yozgan narsalarni xarid qilishmaydi.

Qayerga bormayin, shu gap. Mana, ikki oy davomida qotgan non chaynab yozgan romanim, hordiq nimaligini bilmay ishladim. Unga katta umid bog‘lagandim, ammo hech qaysi nashriyot olmadim, xuddi nikohsiz muhabbatdan tug‘ilgan, machit darvozasi oldida qoldirib ketilgan boladay. Ana shunday kunlarning birida kallamda bir fikr yalt etdi. Nima, farang, nemis, ingliz, italiyalik va boshqa xorij adiblarining hikoyalarini olib, ulardagi Jonsonlarni Maratlarga, Martalarni Fomitalarga almashtirib, muqovasiga o‘z ism-u shariflarini hafasala bilan bitib jurnallalarda chiqarayotgan hamkasblarim ozmi? Ular qilgan ishning teskarisini qil-sam gunohi azim bo‘larmidi?

Bu yangi fikrdan o‘zim quvonib ketdim. O‘tirib romanimdagi barcha turkcha nomlarni amerikachasi bilan almashtirdim. Nyu-York xaritasini olib, diqqat bilan o‘rganib chiqdim. Romanimdagi barcha jo‘g‘rofiy nomlar ham amerikacha jaranglay boshladi. Endi navbat asar muallifiga kelgandi. Boshqa nima ham qilardim: men Mark O‘Brayn nomli amerika adibini yaratdim.

Bu ishlarni amalga oshirgach, yana gazeta tahririyatiga yo‘l oldim. Meni hayrat va toqatsizlik bilan kutib olishdi:

– Axir, biz faqat boshqa tillardan tarjima qilingan romanlarni chiqaramiz dedik-ku!

– Haliyam sizga o‘zimning emas, Mark O‘Brayn romani tarjimasini keltirdim.

– Shunday deng! Juda yaxshi! Bu Mark O‘Brayn deganingiz kim bo‘ldi?

– Siz hali u haqida eshitmaganmisiz? Bu, axir, jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan! Uning kitoblari dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan.

Bu gaplardan keyin romanimni o‘qib ko‘rishga hech qanday zarurat qolmagan. Menga darhol shirinkoma (avans) ham berishdi. Mendan birgina narsa iltimos qilishdi xolos: kitob va muallif haqida qisqagina ma‘lumot tayyorlash lozim.

Hikoya

Darhol qo‘limga qalam olib yoza boshladim: “Mark O‘Braynning eng so‘nggi noyob romani “Ayol uchun kurash” deb nomlangan. Amerikada mashhur bu kitob qirq million nusxada qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan ayni asar nihoyat “Tuyaning kallasi” nomi bilan tilimizga ham o‘girildi”.

Tabiiyki, Mark O‘Braynning o‘zi kim, degan savol tug‘iladi. Aybga buyurmaysiz, shunday qilib men janob Mark O‘Braynning tarjimaiyoli holini tuzdim: “U o‘n sakkiz farzandli oilaning kenjasi edi. Filadelfiyada fermerlik bilan umrguzaronlik qilayotgan otasi undan ruhoniychiqishini orzu qilsa-da, kichkinagina Mark o‘n to‘rt yoshligidanoq topqirligi bilan ajralib turar, dinshunoslik fani professori o‘tiradigan stolga ignani tik qadab qo‘yib, maktabdan haydalishtirishga erishgandi (Umuman olganda, bu – ko‘plab amerikalik adiblar hayotiga xos bo‘lgan mandara). So‘ng baliqchi bo‘ldi, kontrabanda bilan shug‘ullandi, ma‘lum bir muddat oltin qidiruvchilar bilan ishladi (Bularning bari amerikaliklar hayotidan sizga tanish tafsilotlar). Va oxiri qirq yoshida jurnalga o‘zining “Keling, quchoqlashamiz” degan birinchi hikoyasini jo‘natdi. Hikoya tili va uslubi shu darajada no‘noq ediki, hatto...”

O‘zingiz ko‘rib turibsizki, Mark O‘Brayn tarjimaiyoli holi mana shunday cho‘zilib ketdi. Endi, bizning romanlarimiz haqida eshiting!

Nashriyot xodimlari mening izimdan qolishmaydi:

Iltimos, bizga ham Mark O‘Brayndan bittagina tarjima qilib bering!

Men Mark O‘Braynning o‘n sakkizta romanini tarjima qildim. Yana umr bergan bo‘lsa, hali ko‘p asarlarini tarjima qilaman. Biroq ish shuning bilan chegaralanib qolgan emas. Jek Lemmer nomli izquvarni bilasiz. Uning kitoblari ham doimo qo‘lma-qo‘l. Men uning olti asarini tilimizga o‘girdim. Keyingi paytlarda tarjimonlik faoliyatim doirasi yana ham kengaydi. Endi men hind, xitoy va boshqa ko‘plab tillardan tarjima qiladigan bo‘ldim.

Muhtaram kitobxon!

Shuni bilishingizni istardimki, siz gazeta va jurnallarimizda turk tilida o‘qiyotgan hikoya, novella, romanlarning to‘qson to‘qqiz foizi boshqa adabiyotlardan o‘zlashtirib olingan. Sizga tarjima sifatida taqdim etilayotganlari esa aslida o‘zimizning vatandoshlarimiz tomonidan yaratilgan. Xorijiy – ularda faqat qaharmonlarning nomlari-yu har xil atamalar.

Bu ishlarimda meni faqat bir narsa umidlantiradi: shunday bir payt keladiki, Amerika adabiyoti tarixini o‘rganayotganlar turk romanlarini ham o‘qishga majbur bo‘ladilar va mening haqiqiy orzularim amalga oshadi: shunda albatta Mark O‘Brayn nomi bilan Amerika adabiyotida o‘z o‘rnini egallayman.

Turk tilidan
Rahmat BOBOJON
tarjimai.

Bozorov Xolmurod Maxmudovichning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “Almashtirish tizimlarida asosiy, takroriy va oraliq ekinlarning tuproq unumdorligi hamda g‘o‘za hosildorligiga ta‘sir (Jizzax viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi (qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx/42.01 raqamli ilmiy kengashining 2025-yil 28-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
“Botanika” MFY, O‘zPITI ko‘chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Axmedova Dilafruz Bahodirovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha “Bosh og‘riq surunkali shakllarining klinik-neyrofiziologik va neyroimmunologik o‘ziga xosligi, davolashni optimallashtirish usullari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200007, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@bsmi.uz

Bozorov Lutfulla Ubaydullayevichning 02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha “Ikkilamchi polimerlarni modifikatsiyalash asosida issiqlikka chidamli va ion almashinuvchi organik materiallar olish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shohko‘chasi, 76-“v” uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

Raximov Abdurasul Sharifovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha “Diabetik tovon sindromining yiringli-nekrotik asoratlarni majmuaviy davolash usullarini maqbullashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Masharipova Nasiba Ataboyevnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha “Sanoat korxonalari ishchilarida stomatologik kasalliklar diagnostikasi va profilaktikasini takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Babajanov To‘lqin Jumanazarovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha “Energetik ichimliklar ta‘sirida o‘n ikki barmoqli ichakdagi morfologik o‘zgarishlar(eksperimental tadqiqot)” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Umarmulova Gulbahor Alisherovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha “Gipertireoid holatda buyrak usti bezlarining morfologik ko‘rsatkichlari va bunda zaytun moyi hamda selen qo‘llanilishi” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Yuldashov Askar Adizovichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo‘yicha “Quvurlarda ikki fazali beqaror oqim gidravlik hisobini takomillashtirish” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz



Qarshiyev Sharif Sherqulovichning 05.09.03 – Issiqlik taʼminoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash. Gaz taʼminoti va yoritish ixtisosligi boʻyicha “Quyosh kollektorlarini buzilishdan himoyalash uchun energiya tejamkor va ishonchli oʻzini oʻzi drenaj qiladigan gelioqurilmalar” mavzusidagi (texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor koʻchasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@edu.uz

Sotvoldiyeva Odinoxon Ixvolidinovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urugʻchilik ixtisosligi boʻyicha “Tola chiqimi va sifatini yaxshilashda ekologik-geografik uzoq duragaylashning samaradorligi” mavzusidagi (qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Gʻaybullayeva Dildora Fayzulla qizining 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi boʻyicha “Ingliz va oʻzbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik va lingvostatistik xususiyatlari” mavzusidagi (filologiya fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yoʻli koʻchasi, 21-“a” uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Gafarova Sitara Sobirovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi boʻyicha “Diabetik polineyropatiyaning klinik diagnostik tamoyillari va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohkoʻchasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Toshmetova Feruza Nasirulloyevnaning 06.01.09 – Oʻsimliklarni himoya qilish ixtisosligi boʻyicha “Zamburugʻli(fuzarioz va septorioz) kasalliklarning soya hosildorligiga taʼsiri va ularga qarshi kimyoviy kurashning samaradorligi” mavzusidagi (qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urugʻchiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
“Botanika” MFY, PSUEAITI koʻchasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Eshmurzayev Jasur Elmuratovichning 06.01.09 – Oʻsimliklarni himoya qilish ixtisosligi boʻyicha “Qulupnayning zamburugʻlar qoʻzgʻatadigan asosiy kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari” mavzusidagi (qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urugʻchiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
“Botanika” MFY, PSUEAITI koʻchasi.
Tel/faks: (78) 159-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Jurayeva Yulduz Gʻaybullayevnaning 10.00.01 – Oʻzbek tili ixtisosligi boʻyicha “Oʻzbek tilida xotin-qizlar ismlarining lingvistik xususiyatlari” mavzusidagi (filologiya fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 180119, Qarshi shahri, Qarshi-Shahrisabz shohkoʻchasi, 15-uy.
Tel/faks: (75) 221-21-04; e-mail: kasu_info@edu.uz

Xoliqova Dildora Boxodir qizining 06.01.08 – Oʻsimlikshunoslik ixtisosligi boʻyicha “Krotalariya(Krotalaria Juncea L)ning oʻsishi, rivojlanishi, don hosili va sifatiga koʻchat qalinligi hamda maʼdan oʻgʻit meʼyorlarining taʼsiri” mavzusidagi (qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urugʻchiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
“Botanika” MFY, OʻzPITI koʻchasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

Tashnazarov Jasur Yuldashevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashgʻulotlari, sogʻlomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Yunon-rum kurashchilarining texnik tayyorgarligining metodologik asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari boʻyicha) fan doktori(D-Sc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar koʻchasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Rozikov Jasurbek Masharibovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik taʼlimotlar tarixi ixtisosligi boʻyicha “Sport taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi (pedagogika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar koʻchasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Aʼzamxonov Oltinxon Ashrafxon oʻgʻlining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashgʻulotlari, sogʻlomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Kurash boʻyicha murabbiylar kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar koʻchasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt:www.jtsu.uz; e-xat:jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Solaydinov Elmurodjon Shoroidinovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashgʻulotlari, sogʻlomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Erkin kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini bellashuv faoliyatining turli uslublari asosida takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar koʻchasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt:www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Isroilov Oltinbek Ixtiyor oʻgʻlining 02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi boʻyicha “Sellyuloza hosilalari asosida gidrogellar olish va xossalarining tadqiqoti” mavzusidagi (texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Gʻalaba shohkoʻchasi, 76-“v” uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

Kimsanov Baxromjon Ikromjon oʻgʻlining 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi boʻyicha “Kompozit armaturalangan siqiluvchi elementlarning mustahkamlik va kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati” mavzusidagi (texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Fargʻona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.T.106.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 5-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 150107, Fargʻona shahri, Fargʻona koʻchasi, 86-uy.
Tel/faks: (73) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz

Mustafayev Ispandiyor Temirovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashgʻulotlari, sogʻlomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Malakali sportchilarni uzoq muddatli tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi (pedagogika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar koʻchasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Jurakulov Baxrom Azamatovichning 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi boʻyicha “Oqova suvlari choʻkindilari va chiqindi fosforitlari asosida organik-mineral oʻgʻitlar olish texnologiyasi” mavzusidagi (texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Gʻalaba shohkoʻchasi, 76-“v” uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Mustaqilligimizning 34 yilligi oldidan istiqbolga erishgan bu yurt, bu Vatanning orzularini, erkin hayotning asl mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etadigan go'zal bir shior paydo bo'ldi. Aslida biz ana shu kunlarni intiq bo'lib kutayotgandik. Sermazmun va chuqur mushohadaga chorlaydigan ushbu shior bizning faoliyat yo'nalishimizni belgilab beradi. Egallab turgan lavozimim taqozosiga ko'ra jamiyat hayotining barcha qatlamlari bilan faoliyat olib borganim uchun bu kabi shiorlarning nechog'lik ko'tarinki, inson ko'ngliga ta'sir etadigan darajada bo'lishi meni hamisha quvontiradi. "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan shior ham, hech shubhasiz, yuraklarda aziz Vatanimizga bo'lgan pokiza tuyg'ularning ifodasidir.

Bu yilgi shiorda biz uchun qadrdon bo'lgan uch muqaddas tushuncha alohida ta'kidlangan. Vatan, millat va xalq tushunchalari aslida ona suti bilan, otalar nasihati bilan qalbimizga jo bo'lgan. Bir o'ylab ko'raylik: biz bu jonga yaqin tushunchalarni nechog'lik idrok etamiz, ularni qanday tushunamiz?

Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, ota-bobolari asrlar bo'yi yashab, unga meros qilib qoldirgan manzil. Kishi o'z ajdodlarining xoki yotgan bu muqaddas zaminni hech qanday iddaolarsiz, buyruqlarsiz yaxshi ko'radi. Aslida bu shunchaki yaxshi ko'rish ham emas, bu – tug'ilgan tuproq bilan birlik, mushtaraklik, usiz yasholmaslikdir. Ana shu ulkan sevgi inson qalbini hamisha nurlantirib turadi, hayotiga mazmun baxsh etadi. Uning boshiga turli og'ir kunlar tushganda, hech qanday imkoniyati qolmaganda ham ko'nglining bir chetida Vatan tushunchasi bo'y cho'zib turadi, uni xotirjamlikka, qat'iyatga chorlaydi. Xalqimizning "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas" degan maqoli bejiz aytilmagan. Inson o'z Vatani tinchligi, obodligi uchun hech kutilmagan qahramonliklar ko'rsatadi, lozim bo'lganda, Vatani uchun sira ikkilanmay jonini qurbon qiladi. Vatan muhabbati ana shunday qudratli tuyg'udir.

Har bir insonning asl qiyofasini belgilab beruvchi omillardan biri – bu millatdir. Yer yuzidagi har bir inson qaysidir millatga albatta mansub bo'ladi, dunyoda millatsiz inson yo'q. Va u ana shu millatning ajralmas bir qismi sifatida uning qismatiga sherikdir. Qadim turkiy millatning bir tarmog'i bo'lgan o'zbeklar bugun dunyoga o'z so'zini ayta oluvchi qudratli bir jamiyatga aylandi. O'zbek degan so'z zamirida ne-ne ulug' jahongirlar, olim-u allomalar, shoirlar-u san'atkorlar tushuniladi. Jahonga minglab yetuk siymolarni yetkazib bergan o'zbeklar o'zlarining buyuk ajdodlari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Dunyo tamadduniga kuchli turtki bergan Imom Buxoriy, Amir Temur, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' bobolarimizni hamisha iftixor bilan eslaymiz va yosh avlodga ular to'g'risida gapirib beramiz. Zero, ajdodlar merosi – avlodlar kamoloti uchun dasturulamaldir.

Jahondagi mamlakatlarning har birida tarkibi insonlardan iborat bo'lgan guruhlar bor, u xalq deb ataladi. "Xalq" so'zi arab tilida "yaratilgan" degan ma'noni beradi. Ya'ni, Olloh – Yaratgan, xalq esa yaratilgan. Millatdan farqli o'laroq, xalq faqat bir tilda so'zlashuvchi insonlar guruhidan iborat emas, xalq tarkibida turli millat vakillari bo'lishi mumkin. Vatanimiz O'zbekistonda ham yuzdan ortiq millat vakillari ahil va inoq

yashashadi, ular birlashib, O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Shunchaki odamlar to'dasi, palapartish olomon birlashsa, u xalq sanalmaydi. Ma'lum bir maqsad yo'lida birlashgan, ongli, o'z istiqbol rejasiga ega bo'lgan insonlar jamiyati xalqdir. Jadid adabiyotining yorqin vakillaridan biri Cho'lpon bir she'rida "Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir" deb bejiz ta'kidlamagan. Agar xalq azm-u qaror qilsa, uning qudrati cho'llarni gulistonga aylantiradi, daryolar o'zanini o'zgartiradi, tog'larni yiqitadi. Bu dunyoda xalqqa bas keladigan kuch yo'qdir. Donishmand ajdodlarimiz aytishganidek: "Xalq bir luqmadan bersa – to'ydiradi, bir mushtdan ursa – o'ldiradi". O'zbek xalqi ham ana shunday bemisl qudrat sohibidir. Alamli xotiralari hali qalblardan butunlay o'chmagan dahshatli Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqimiz turli millatga mansub bo'lgan millionlab yetim bolalarni beminnat o'z bag'riga olgani, evakuatsiya qilingan yuzlab sanoat korxonalarini ishga tushirgani, qirg besh kunda Katta Farg'ona kanalini bunyod etgani, minglab gektar cho'llarni o'zlashtirgani, tog'lar bag'rini tikkasiga tilib o'tib, Qamchiq dovoni orqali yo'l qurganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hammamiz bir ulug' maqsad yo'lida birlashganmiz: Vatanimiz tinch va osoyishta, millatimiz abadiy, xalqimiz to'q va farovon bo'lsin. Yurt egalari, xususan, muhtaram Prezidentimizning ezgu tilaklari ham ana shu. Insonning Vatani tinch, ozod bo'lmasa, u o'z uyida xotirjam yasholmaydi. Millat parokandalikka yuz tutsa, o'z tili, urf-odatlarini unuta boshlasa, bunday millatning kelajagi bo'lmaydi. Chunki millatni millat qilib turadigan asosiy qadriyat – uning tili va an'analaridir. Agar xalq to'q va farovon yashamasa, uning Vatan hamda millat singari buyuk tushunchalar bilan ishi bo'lmay, faqat qorin tashvishi bilan andarmon bo'lib qoladi. Shuning uchun so'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning aksariyati aholining turmush darajasini yaxshilash, el-u yurtni obod qilishga qaratilmoqda. Bunyodkor xalqimiz ham bu g'amxo'rlikka javoban Vatan istiqbolini belgilab beruvchi, yuksak orzularni diliga tukkan iqtidorli yoshlarni tarbiyalamoqda. O'zbek futbolchilari jahon chempionatiga yo'llanma olishgani, bokschilarimiz dunyoga dovruc solishayotgani, mumtoz san'atimiz vakillari jahon sahnalarida kuylashayotgani fikrimizga yorqin misoldir. Uzoqqa bormay, o'zim yashaydigan Olot tumaniga qo'shni yurt – Qorako'l akademik litseyi bitiruvchilari bu yil yuz foizlik natija bilan oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganlarini eshitib, quvonmay bo'ladimi?



Vatanning tinchligi, istiqboldagi nurli kunlar ko'p jihatdan xalqning ma'naviy saviyasiga bog'liq. Shu kasbda faoliyat yuritganim sababli: tumanimizdagi barcha maktab va tashkilotlarda tez-tez bo'lib turaman, u yerdagi o'qituvchilar, o'quvchilar, ishchi va xizmatchilar bilan muloqot qilaman. Tadbirlar davomida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy dunyosi boyib borayotganligi, ular buyuk maqsadlar bilan yashayotganliklariga guvoh bo'laman.

Har bir tilning lug'atida kishining joniga yaqin, ruhiyatiga orom beruvchi, ko'nglini yorituvchi so'zlar bo'ladi. *Vatan, millat va xalq* – ana shunday hayotbaxsh va ko'ngilga hamroz so'zlar. Ana shu uch buyuk tushunchadan paydo bo'ladigan ulug' bir istak doimo yuraklarimizni umidga, orzuga to'ldirib turadi. Uch aziz tushunchaning mushtarakligidan paydo bo'ladigan bu pokiza istak – O'zbekistonning nurli ertangi kuniga bo'lgan ishonchimizdir. Yuksak ma'naviyatli, ma'rifatga oshno millat va xalq qalbida bu ishonch hamisha barq urib turadi. Zero, bir paytlar dunyoga dovruc solgan ulug' ajdodlarimiz ruhi oldida barchamiz qarzdormiz. Ushbu qarzni uzish uchun biz ozod va obod Vatanni kelgusi avlodlarga obod va go'zal holda topshirmog'imiz kerak. Vatan, millat va xalq uchun mehnat qilish – eng oliy maqsadimiz, chunki ertaga bu zaminda o'z farzandlarimiz yashashadi.

Globalashuv ko'lami tobora ortib, dunyodagi xalqlar va millatlar bir-birlariga tobora o'xshab borayotgan, bir xil kiyinib, bir xil kuylashga kirishgan bugungi davrda milliy o'zligimizni saqlab qolish juda muhimdir. Zotan, har bir xalq va millat o'z qiyofasiga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun biz ma'naviy dunyomizni yanada boyitishimiz, ajdodlar merosini chuqur o'rganmog'imiz talab etiladi.

Dilobar JO'RAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi
Olot tuman bo'linmasi
bosh mutaxassisi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6003. Tiraji 5665.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.